

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI  
“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL  
ETISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI  
“MADANIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDA DAVLAT VA  
JAMOAT TASHKILOTLARI HAMKORLIGI”  
*mavzusidagi*

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajardi:** Ijtimoiy-madaniy faoliyat  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

**O`ralova    Hulkar    Toxir    qizi**

**Ilmiy rahbar:** “Madaniyat va san’at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” kafedraasi dotsenti

**V.Q.Rustamov** \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ish kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi.

Kafedra majlisining \_\_\_\_ - sonli bayonnomasi 2019 yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

Toshkent 2019

## MUNDARIJA

|                                                                                                                 |           |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| Kirish.....                                                                                                     | 3         |
| <b>I-bob. MADANIY TARAQQIYOT – XALQ FARAVONLIGINI<br/>BELGILOVCHI OMILLARDAN BIRI<br/>SIFATIDA.....</b>         | <b>7</b>  |
| 1.1. Madaniy taraqqiyot rivojlanishining madaniy meros bilan<br>aloqadorligi.....                               | 7         |
| 1.2. O'zbekistonda amalga oshiralayotgan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy<br>islohotlar tahlili.....                | 24        |
| <b>II-bob. IJTIMOIIY-MADANIY MASALALARNI HAL ETISHDA<br/>DAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARI<br/>HAMKORLIGI.....</b> | <b>38</b> |
| 2.1. Davlat va jamoat tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotning<br>yangicha ko'rinishlari.....            | 38        |
| 2.2. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligining jamiyat taraqqiyotidagi<br>roli.....                         | 48        |
| Xulosa.....                                                                                                     | 57        |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                                                         | 60        |

**“Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”.**

**SH.M.MIRZIYOEV**

### **KIRISH**

“O‘zbekiston davlati mamlakatda insonlarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, Vatanini sevish kabi ijobiy hislatlarni jo qilishga”<sup>1</sup> katta e’tibor qaratmoqda. Shu bois ham jamiyat taraqqiyotiga tegishli bo‘lgan barcha sohalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, madaniyat, san’at sohasiga tegishli bo‘lgan barcha xujjatlarda mamlakatimizda madaniy taraqqiyotga katta e’tibor berilganligini guvohi bo‘lib turibmiz.

San’at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo‘l topish haqida so‘z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, bu sohada madaniyat va san’at muassasalari muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu hayotda sohani rivojlantirish, ishlab chiqarish bilan birgalikda madaniyat va ma’naviyat parallel rivojlanib bormasa erishilayotgan natijalar bardavomligida yangi-yangi to‘siqlar vujudga kela boshlaydi. Shu jihatdan mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohatlar qatorida madaniyat va san’at sohasida yangiliklar,

---

<sup>1</sup>V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent, 2017y. 18b.

yangicha yondashish uchun qator sohalarda zamonaviy faoliyat joriy qilinmoqda.

Mustaqillik xalqimizning ma'naviy qadriyatlari, madaniy merosi, milliy an'analarini va uzoq tarixga ega bo'lgan san'atimizni saqlab qolish, asrab avaylash hamda uni yanada rivojlantirish va madaniy taraqqiyotiga xizmat qildirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berdi. Jahonshumul tarixiy bunyodkorlik ishlarini olib borayotgan davlatimiz rahbariyati o'tish davri islohotlarining nafaqat iqtisodiy masalalari bilan cheklanib qolmasdan, balki har qanday qiyinchiliklarga qaramay istiqlolning dastlabki kunlaridanoq madaniy taraqqiyot masalalariga ham alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Xususan, madaniyat sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning bu borada olib borgan izlanishlari va sayi-harakatlari tufayli O'zbekistonning yettita durdona merosi YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatlariga kiritildi. Jumladan, Boysun madaniy muhiti (2008 yil), Shashmaqom (Tojikiston bilan birgalikda, 2008 yil), Katta ashula (2009 yil) va Navro'z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston va Turkiya bilan birgalikda, 2009 yil, mazkur davlatlarga yana Tojikiston, Afg'oniston, Iroq, Qozog'iston, Turkmaniston ham qo'shilgan yangilangan tarkibda, 2016), Askiya (2014 yil), Palov madaniyati va an'analari (2016 yil) hamda "Marg'ilon hunarmandchilik maktabi: atlas va adras to'qish texnologiyasi" (2017 yil) ushbu ro'yxatdan o'rin oldi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik sharoitida madaniyat va san'atni rivojlanishi uni boshqarish xizmat ko'rsatish va san'at vositalarining muhimlik darajasi aniqlandi, madaniyat muassasalarida madaniy tadbirlarni tashkil etish va ularning faoliyatni boshqarish shaxsnining shakllanishida ijtimoiylashuv va hayotda o'z o'rniga ega bo'lishga qiziqishlarini uyg'otishdir. Shuningdek, madaniy taraqqiyotni ta'minlashda jamoat tashkilotlar hamkorligini yanada

oshirish bu borada respublikamizda faoliyat olib borayotgan madaniy-ma'rifiy imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy sohadagi o'zgarishlar va islohotlarni tahlil qilish ishlarini bir qancha ilmiy va ijodiy faoliyatlarida ko'rishimiz mumkin. Madaniy-ma'rifiy sohada faoliyat olib borayotgan olimlarimizning madaniy taraqqiy topishga doir qarashlari aks etgan asarlari, O'zbekiston Respublikasining bu boradagi milliy qonunchiligi, qonunosti hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining madaniyat va san'atga doir qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining buyruqlari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektordagi nutqi hamda ma'naviyat va milliy g'oya masalalari yoritilgan asarlari tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqot natijasida Madaniy taraqqiyotni targ'ib etish ilmiy jihatdan tadqiq etiladi hamda xalqimiz, ayniqsa yoshlar orasida targ'ib etish usullari va yo'llari aniq dalillar asosida ochib beriladi. Bundan tashqari ushbu tadqiqot ishida targ'ibotning innovatsion loyihalari amaliyotga tadbqiq etish uchun taklif etiladi.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti.** Tadqiqotimizning ob'ekti bugungi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan davlat va jamoat madaniy-ma'rifiy muassasalardir. Ularda nomoddiy madaniy merosni targ'ibotini yo'lga qo'yish, madaniy taraqqiyot masalalari uni yanada rivojlantirish, bu borada innovatsion yondashuv ishimizning predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Madaniy taraqqiyotni keng targ'ib etish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- Respublikamizda mavjud madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati va imkoniyatlarini o'rganish;
- Mazkur muassasalarda targ'ib etiladigan nomoddiy madaniy meros yo'nalishlari va namunalarini aniqlab olish;
- Madaniy taraqqiyotni targ'ib qilishda zamonaviy va innovatsion yondashuvlardan foydalanish;
- Madaniy taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida to'garaklar tashkil etish;

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi.** Ushbu ish ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

## **I-bob. MADANIY TARAQQIYOT – XALQ FARAVONLIGINI BELGILOVCHI OMILLARDAN BIRI SIFATIDA**

### **1.1.Madaniyat rivojlanishining madaniy meros bilan aloqadorligi**

Madaniy jarayonning o'ziga xosligi shundaki, madaniyat hodisasi har doim shakl va mazmun, borliq va munosabat, narsaning mavjudligi va uning ramziy mazmuni uyg'unligiga ega bo'ladi. Moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat-madaniyatning asosiy ikki sohasi bo'lib, bir-biri bilan o'zaro aloqada, o'zaro ta'sirda va bir-birini taqazo qilgan holda rivojlanadi. Moddiy madaniyat har doim ma'lum bir ma'naviy madaniyatning timsoli hisoblanadi, o'z navbatda ma'naviy madaniyat ham qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlarda moddiy uyg'unlikda mujassam bo'ladi.

Moddiy madaniyatning ma'naviyatdan tarixan ayriligi faqat insoniyat taraqqiyotining boshlang'ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda ma'naviy faoliyat maxsus sohaga aylangach axloqiy mezonlar, din, san'at, huquq, siyosat, fan shakllanib, ma'lum doiradagi kishilar bu soha bilan shug'ullana boshladi.

Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda faqat ma'naviy madaniyat nazarda tutildi. Negaki, borliqni haqiqat, yaxshilik, go'zallik belgilaydi deb hisoblashgan. Shuning uchun, birinchi o'rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi fan axloq, nafosat bo'lib keldi. Natijada, jamiyatning moddiy hayotini, uning iqtisodiyotini o'rganishga e'tibor berilmadi. Moddiy madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz, hisoblangan.

Industrial jamiyatining vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarini tezda almashishi madaniyatshunoslarni insoniyatning barcha moddiy madaniyatini o'rganishga majbur qildi.

Kishilarning amaliy qayta o'zgartiruvchilik faoliyati, ularni ijtimoiy ishlab chiqarish va takroriy ishlab chiqarish bilan bog'liqligi moddiy madaniyatning o'ziga xos sohalarga bo'linishi madaniyatshunoslikda muayyan tadqiqotlarga zaruriyat tug'dirdi.

Moddiy madaniyatning **birinchi katta sohasi** bu mehnat qurollari ishlab chiqarishning barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari, texnika qurilmalari. Xullas, sun'iy sharoitda yaratilgan narsalarning barchasi, shuningdek moddiy madaniyatning bu qismi ishlab chiqarish texnika madaniyati yoki jamiyat hayotining moddiy texnika asosi deb ataladi. Ishlab chiqaruvchi texnika madaniyatining maxsus qismini ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat faoliyatida ishtirok etuvchilarning ijodiy ko'lam, ularning texnik bilimi, ishlab chiqarish madaniyati, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari tashkil qiladi.

Moddiy madaniyatning **ikkinchi sohasi** ijtimoiy hayot va uning barcha tarmoqlarining me'yoriy harakatini ta'minlovchi ko'plab ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog'liq. Bu turli hokimiyat tuzilmalari va unga munosib boshqaruv shakllari, ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish, sog'liqni saqlash va dam olish, bo'sh vaqt va ko'ngil ochish muassasalari tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saqlaydi, o'zgartiradi va qayta shakllantiradi.

Moddiy madaniyatining **uchinchi sohasi** (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insonning o'zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning bu sohasi nafaqat insoniyatni shunchaki biomavjudotlik muammolarini tadqiq qilmasdan, balki avlodlarning o'zaro munosabatlari muammolarini ham tahlil qiladi.

Inson ulg'ayishi va jamoaga mansubligi mezonidan boshqa jamiyat madaniyati a'zosi sifatida shakllanishi mumkin. Ikki xil, ba'zan insonni ikki turdan ham ko'proq madaniyatga mansubligi uni ko'p tomonlama, turli madaniy olamga mansub qiladi. Ammo, bunda ma'lum havf ham yashirin bo'ladi. Ya'ni, ulg'ayuvchi avlod jamiyatga aralashuvi jarayonida begona madaniyatlarning aralashuvi yoshlarni o'zining madaniyat manbaidan ayrilishiga, o'z etnik an'analarini tushunmasligiga olib keladi. O'z milliy madaniyatidan mahrum kishi manqurtga aylanadi va har qanday madaniyatga ham befarq munosabatda bo'ladi. Shuning uchun meros, madaniyatning uzluksiz an'anaviy yangilanish jarayonini ta'minlash o'ta muhim.

Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi doirasiga inson hayot faoliyatining genetik (irsiy), jismoniy (somatik), tibbiy-biologik xususiyatlari haqidagi, jamiyatda yuzaga keladigan va tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari aks etuvchi madaniy an'analar va sog'lom odatlarga to'g'ri keladigan insonning tartibli ovqatlanish va turmush tarzi haqidagi bilimlar majmui bo'lgan inson ekologiyasi muammolari ham mansub.

Umuman, moddiy madaniyatga mehnat madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, turmush madaniyati, ekologik madaniyatlar kiradi. Ishlab chiqarish vositalari moddiy madaniyatning muhim qismidir. Zamonaviy texnika yutuqlari jamiyat moddiy madaniyatning asosini belgilovchi jihatdir. Maishiy turmushdagi iste'mol buyumlari ham har bir xalqning moddiy hayot darajasini belgilaydi. Shu o'rinda moddiy madaniyat ishlab chiqarish va iste'mol buyumlarining oddiy majmuidangina iborat bo'lmay, ularni ijodiy o'zlashtirish, yangidan yaratish, ulardan mukammal foydalanish usullari hamdir. Bunda ijodiy salohiyat, malaka va g'oya yangidan moddiylashib, shaxs, jamiyat, millat, xalq, davlat umuminsoniy mazmun ham kasb etadi.

Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo'lgan buyumlarni moddiy ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Tarixiy davrlarda madaniyatning keng ko'lamli rivoji sivilizatsiya tushunchasida ham ifodalanadi. Sivilizatsiya ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyoti bosqichini bildirib, moddiy madaniyatning turdosh nomidir. Hozirgi davrda sivilizatsiya insoniyatga begona bo'lgan ob'ektlarni qayta o'zgartirishni bildiradi, madaniyat esa insonning fazilati va holati, tashqi dunyoga bog'liqligi yoki erkinligining mezonidir. Nemis olimi O. Shpengler, sivilizatsiya tafakkurni bir qolipga solib qo'yadi, umum qabul qilgan haqiqatlarni mutloqatlashtiradi, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, sivilizatsiyani urbanizatsiyaga, hatto olamni noinsonlashtirishga olib keladi, sivilizatsiya va fan o'zligicha ma'naviy taraqqiyotni ta'minlay olmaydi, bu yerda aqliy, axloqiy va estetik yutuqlarni mujassam qilgan ma'naviy tuzilma zarur degan fikrlar mavjud.

Ma'naviy madaniyat ancha ilgaridan o'rganila boshlangan. Insoniyat tarixining boshlaridan kishilar ma'naviy madaniyatni belgilashga, uning shakllanish sabablarini aniqlanishga, ma'naviy boylik ijodkori va yaratuvchilari qanday sifatlarga ega bo'lishlari kerakligi va ma'naviy ijodkorlik jarayonini tushuntirishga uringanlar. Ilgari mavjud bo'lmagan madaniyat hodisasini vujudga keltirishga xizmat qiluvchi ijodiy kuchlar hayolat, fantastik tadqiqotlarga e'tiborlarini qaratadi. Insondagi barcha qobiliyat tabiatan mavjud bo'lib, uning shakllanishi insonning paydo bo'lish davridan boshlangan. Insondagi ajdodlardan qolgan yovvoyilik xususiyatlari tabiat bilan doimiy o'zaro hamkorlikda, uni o'zlashtirishi davomida yo'qolib, bilimi rivojlandi. Undagi jismoniy va ruhiy jihatlar takomillashib, intellektual va xissiy imkoniyatlar kuchayib bordi. Inson jismoniy, fikriy va his qiluvchi mavjudod sifatidagi dastlabki davridanoq o'ziga xos dunyosini yarata boshladi: moddiy va ideal dunyosi taraqqiyotining har bir davrida fikrlash va his qilish tarzining maxsus aqliy tasavvur tizimi to'plandi. Bunda barcha umuminsoniy madaniyat singari turli xalqlar tomonidan yaratilgan mustaqil madaniyatlar manbai ham mavjud. Insonning ideal dunyosi- bu uzluksiz harakat shaklining benihoya rang-barangligi, murakkab meyor, munosabatlar darajasiga ega bo'lgan obrazlar rivoji va vazifasi, tiplarning voqelik bilan aloqasidir.

Ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroq, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib qoladi. Fan, din, falsafa, san'at, axloq, huquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyatning aniq shakllari hisoblanadi. Alohida shakldagi ma'naviyatning xususiyati maxsus tuzilish va ma'lum vazifalar majmuidan iborat, har birining o'ziga xosligida ifodalanadi. Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, san'at) «chegaralanganlikda» farqlanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning aniq sohasiga aylanadi, boshqa shakllarida (axloqiy, estetik) faoliyatning barcha turlari qorishib ketadi. Madaniyatdagi hayratlanarli funksional haqqoniylik shuki, unda hech bir ortiqcha, shunchaki narsa yo'q, barcha madaniyat hodisasi o'zaro foydali umumiy aloqadorlikda kechadi. Tadqiqotchilar madaniyatning turli funksiyalarini ko'rsatadilar. Jumladan:

**olamni o'zlashtirish va qayta o'zgartirish;** bunda u mavjud narsalarning jismoniy talablarini, shuningdek ijoddagi hayotiy talablarni qondirish zarurati bilan bog'liq.

**Himoya-moslashuv vazifasi;** jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi muvofiqlikni saqlash. Ushbu funksiya uzoq vaqt qiyin tabiiy sharoitlarda barcha yangi himoya vositalarini ishlab chiqishda va ko'niktirishda (olov, turar joy, kiyim, dehqonchilik va hok.) Odamning omon qolishini ta'minlaydi. Keyingi vaqtlarda o'ta jiddiy bo'lib turgan muammo tabiatni himoya qiluvchi vositalarni yaratish, bunda ekologik mezon, ekologik tafakkurning keng ko'lamda yoyilishini amalga oshirish zarur.

**signifikativ funksiya** (belgilash, ro'yxatga olish mazmunida):- mazmun, ma'no, nom, belgilar ko'lamini ishlab chiqish vositasida dunyoning qiyofasida, voqelikni belgi tizimining yaratilishi. Sezgilar ham, tashqi idrok ham, na shuurning bevosita kechinmalar holidagi yig'indisi ham yo'nalishni aniqlash tizimini insonga ta'minlab bermaydi. Bu vazifani ma'lumotlarni o'zida saqlamasdan, nazariy modellar va axborotlar bilimini to'plashni vujudga keltirish uchun faqat material bo'lib xizmat qiluvchi mazmun bajaradi. **Axborotlarni o'zlashtirish va yig'ish funksiyasi** xabarlarini yig'ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarini narsalarga yozish (qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, ohonrabo yoki raqamli yozuvlar) bo'lishi mumkin. Har qanday holatda axborotlarni tashkil qilish, uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilar tizimi zarur. Hozirgi davrda til belgilar tizimining keng qo'llami va o'ta ahamiyatlisi bo'lib qolmoqda.

**kommunikativ funksiya** (aloqa almashuv)- mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashlash. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, axborot, o'zaro amaliy hamkorlikni taqozo qiladi, negaki, faqat turli tiplarning munosabati (an'anaviy, funksional-ahamiyatli, shaxslararo, ishlab chiqaruvchi, ma'rifiy-madaniy) jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga qodir.

**normativiylik funksiya** (mezon-me'yoriy)- kishilar hulqini tartibga solish, ularning kuchini bir me'yorda va jamiyatni bir butunlikda saqlash maqsadida

muvofiglashtirish. Me`yor-qoida qandaydir harakat yoki qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida aniq ko`rsatmadir. Ongli ravishda o`rnatilgan yoki ko`p asrlik an`analarga tayanuvchi majburiy, taqiqlovchi me`yorlar mavjud (huquqiy, axloqiy meyorlar), biroq ularning mazmuni bor jamiyatni barbod qilmaslik uchun kishilar faoliyatini tartibga solish, aniq chegaralar bilan belgilash.

**ruhiy yoki «loyihaviy» mo`tadillik-** bayramlar, diniy marosimlar, o`yin, tomosha jarayonlarida ruhiy zo`riqishlarni bartaraf qilish. Qoniqarsiz istaklar, ro`yobga chiqmaydigan niyatlar, amalda taqiqlanuvchi janjallar mavjudligi ruhiy zo`riqishlar paydo bo`lishiga olib kelib, nafaqat ma`lum bir shaxs salomatligiga zarar yetkazadi, balki, ommaviylik kasb etib, jamiyat harakatini izdan chiqarishi mumkin. Shuning uchun madaniyatda keraksiz xissiyotdan xalos bo`lish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Xullas, kishilar yaratgan moddiy va ma`naviy qadriyatlar, boyliklar ularning qobiliyatlari, munosabatlari va mohiyatli kuchlari namoyon bo`lishidan iborat. Inson madaniyat sohasida bu ma`naviy qadriyatlarga o`z munosabatini bildirar ekan, ayni vaqtda, o`zi rivojlanadigan, o`zi o`zgarib turadigan mohiyat sifatida ham namoyon bo`ladi. Demak, madaniyat narsalar shaklida, inson faoliyatining tayyor mahsulotlari shaklida va insonning jonli qobiliyatlari, bilimlari shaklida yashab turadi. Kishilar ijtimoiy tajriba jarayonida zaruriy moddiy shart-sharoit va hayot vositalarini yaratish bilangina kifoyalanmay, ayni chog`da o`z ongini ham takomillashtiradi. Ijtimoiy ong shakllarini (dunyoqarash, axloq, huquq, estetik ong) vujudga keltiradilar yoki ma`naviy ishlab chiqarish faoliyatni amalga oshiradilar. Bularning majmui ma`naviy madaniyat sohasini tashkil etadi.

Ma`naviy madaniyat kishilar ma`naviy ijodkorligi faoliyatlari natijalari-tasavvurlar, g`oyalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san`at sohalari, axloqiy va huquqiy meyorlarni ishlab chiqarishdan hosil bo`ladi. Bunday ma`naviy qadriyatlar o`zicha paydo bo`lmaydi, balki muayyan taraqqiyot bosqichida o`zaro munosabatga kiradigan kishilar tomonidan yaratiladi. Ma`naviy madaniyat – ma`naviy ijodning shunchaki mahsuloti bo`lmay, balki ijodiy faoliyatni amalga oshiradigan kishilar

o'rtasidagi munosabatni ham bildiradi. Shuningdek, ma'naviy madaniyat ta'lim va fan sohasi bilan bog'langan ilmiy faoliyat va bilim olish jarayoni bilan uzviy bo'lgan bilish madaniyatini, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi. Natijada, ma'naviy madaniyat o'zaro uzviy bog'liqda inson ma'naviy fazilati va faoliyatining narsalarda moddiylashgan shaklida, inson tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar shaklida (ilm, san'at, huquq, axloqqoidalarida) mavjud bo'ladi.

Madaniyatning quyidagi funksiyalari bevosita shaxs bilan bog'liq:

- **«gominizatsiya»** - urug'doshlik xususiyatlarini o'rganish. Madaniyat «aqli odam» uchun xos bo'lgan-nutq, narsalarni ramziy ifodalash (yoki mavhum tafakkur) xususiyatlarini har bir odam o'rganishga imkon yaratadi.

- **sotsializatsiya**- (umumlashtirish)- jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy a'zosi sifatida zarur hisoblangan ma'lum miqdordagi shartlarni o'zlashtirish. Bu funksiya idrok, tafakkur, nutq, so'zlarni qo'llanilishi, ohangi, imo-ishora va shama, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek, talab va qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarning mustahkamlanishi bilan bog'liq.

- **inkulturatsiya** – avvalo, o'z xalqining, keyin esa umuminsoniy madaniy merosga (aralashish) munosabatda bo'lish (bu jarayonni muhokama qilishga alohida mavzu bag'ishlanadi).

- **individualizatsiya** - madaniyat ma'lum shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatini o'ta rivojlantirishga mo'ljallangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida- (jamiyat, insoniyat) eng asosiy bo'g'in bo'lib, bu har bir aniq shaxs madaniyatining barkamollik darajasiga jamiyat yoki butun insoniyat madaniyati bog'liq bo'lishini bildiradi.

Har qanday jamiyat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, boy bilim olami bo'lib, u insonni qaerda yashashi va harakat qilishini, umuman, dunyodagi va jamiyatdagi o'rnini belgilashga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun o'ta shaxsiy mohiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabat o'rnatadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo'luvchi axloq shakllarini yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Taxsinga loyiq joyi

shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munozarali emas, balki muloyim munosabat shakllanadi. Munozaralar tug'ilgan hollarda jamiyatni mustahkamlashga munosib bo'lgan bartaraf qilishning qulay usullari topiladi.

Jamiyat, avvalo tarixning muayyan bir taraqqiyoti bosqichida tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi bo'lib, rivojlanuvchi kishilar hayotiy faoliyatlarining majmuidir. Shuningdek, jamiyat kishilik tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tizimning aniq tipi. Ishlab chiqarish munosabatlarining majmui ijtimoiy munosabatlar deyiluvchi jamiyatni, ya'ni tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichidagi jamiyatni vujudga keltiradi.

Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham o'z navbatida muayyan bir jamiyat madaniyatida shakllanadi. Har bir jamiyat shaxs madaniyatini kamol toptirishda o'zining me'yoriy qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi.

Jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati, shaxsning erkinligi, uning huquq va burchlari, insoniy qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlardagi muhim masala hisoblangan. Inson tabiatning oliy mahsuli bo'lib, uning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bilan belgilanadi. Inson ayni paytda ham tarixiy taraqqiyotning mahsuli, ham uning sub'ektidir. Ijtimoiy munosabatlar insonni ijtimoiy vujudga aylantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Inson ishlab chiqarish jarayonida faqat narsalar yaratib qolmay, o'zini, o'z shaxsiyatini ham qayta yaratadi. Bu jarayonda inson o'zini takror ijod qiladi va shu jihatdan u ijtimoiy mavjudotdir.

Odamlarning ijtimoiy mohiyati shaxsda mujassamlashgan holda o'z ifodasini topadi. Shaxs odamning ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy faoliyatining ifodalanishidir. Odam ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish natijasida shaxsga aylanadi. Inson ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida muayyan huquqva burchlarga egadir. Bu uning shaxs ekanligini ifodalaydi. Indivud shaxsga aylanishi uchun bir qancha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. Shaxs deyilganda, umuman insonni emas, balki tipik

va erkinliklarga ega bo'lgan odam tushuniladi. U ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgan odamdir.

Individ alohida bir kishi bo'lib, boshqalardan farqlanuvchi xususiyatlarga ega. Individ ham ijtimoiy mavjudotdir. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish asosida shaxs sifatida shakllanadi. Individning shaxs tariqasida voyaga yeta borishi u mansub bo'lgan tarixiy sharoitlardan, yashab, ta'lim-tarbiya olib turgan jamiyatdan ajralmasdir.

Shaxsni jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlardan ajratib bo'lmaganidek, jamiyat taraqqiyoti ham insonning amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabat bir-biriga bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan munosabatlardir. Ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs turmushining turli-tuman ko'rinishlari, xususiyatlari shakllanadi. Shaxsning shakllanishida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir shaxsda u mansub bo'lgan jamoaga, millatga, elatga, jamiyatga xos jami xususiyatlar va belgilar bo'ladi. Shaxs o'z hayotining butun mazmunini jamiyatdan, kishilar jamoasidan oladi. Har qanday shaxs ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillarning uzviy birligi ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolatida ob'ektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila, o'quv dargohlar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, matbuot, mahalla, ko'cha singari omillar ham shaxsni tarbiyalashda muhimdir. Ob'ektiv shart-sharoitlarning shaxsga ta'siri sub'ektiv omillar orqali o'tadi.

Shaxs ijtimoiy mavjudot sifatida muayyan erkinlikka ham egadir. Uning erkinlik darajasi jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, mulkiy munosabatlarga ham bog'liq. Erkinlik har bir shaxsning tabiiy huquqidir. Shaxslarning insoniy huquqlari va erkinliklarni chegaralab qo'yish, paymol qilish; milliy, diniy kamsitishlar; irqchilik; xalqlarning tili, urf-odatlari, tarixi, madaniy meroslari, milliy qadriyatlariga bepisand qarash, ularning huquq va manfaatlarini kamsitishdir. Shaxsning huquq va erkinliklaridan tashqari uning jamiyat va umuminsoniyat oldidagi burchi va ma'suliyati ham bor. Inson o'zi yashab turgan jamiyatning qonun-qoidalari, tartiblari, axloqiy, huquqiy normalariga amal qilmaslik, uning muammolari, qiyinchiliklariga befarq qarash aslo mumkin emas. Har

bir mamlakatning konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan qonunlarga amal qilish, boshqa fuqarolarning milliy qadr-qimmatini hurmatlash, jamiyat manfaatlariga, turmush tarziga, odob-axloq va madaniyatga zid va nojo'ya harakatlarga murosasiz bo'lish, vatanni himoya qilish va boshqa shu kabilar shaxsning burchi va ma'suliyatidan iborat.

Har bir shaxsning umumxalq manfaatlariga to'la taalluqli bo'lgan burchlar va ma'suliyatlari ham bo'ladi. Bular tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini qo'riqlash, madaniy-tarixiy yodgorliklarni saqlash haqida g'amxo'rlik qilish, boshqa xalqlar va mamlakatlar bilan do'stlik, tinchlikni saqlash singarilardir. Barcha sivilizatsiyali jamiyatlarda shaxsning erkini bo'g'ib qo'yish, uning huquqlariga yo'l bermaslik, unga hiyonat qilish yoki uning jamiyat oldidagi burch va ma'suliyatini bajarmasligi qonun yo'li bilan ta'qiqlanadi. Barcha madaniyatli jamiyatning xususiyatini, uning mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu nafaqat keng bilimga ega bo'lishni, balki tashabbuskorlikni, javobgarlikni, axloqiy-estetik jur'atni va tug'ma iste'dodni bildiradi. Ziyolilar-aqliy mehnatning hilma-xil murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi qatlamdir (fan va madaniyat xodimlari, o'qituvchilar, muhandislar, texniklar, shifokorlar).

Madaniyatlilik deganda kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, sahovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, sahiylik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish, axloqiy qoidalarga to'la amal qilish, o'z millati hamda boshqa xalqlarni ham hurmat qilish xislatlari anglashiladi.

Ziyolilik aqliy kamolat egasi bo'lish, nazariy masalalarni anglashga, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishdir. «ziyolilik» yuksak darajada kamol topgan intelligentni, keng bilimli, yuksak madaniyatlilikni anglatga, «ziyoli» kishilarni tabaqalari orasidagi ijtimoiy qatlamni anglatadiki, bu qatlam yuqori malakali aqliy mehnat bilan mashg'uldir.

Yetarli bilimga ega bo'lmagan holda dunyodagi barcha narsalar to'g'risida fikr bildiruvchi kishi diletantdir. Diletantlik madaniyat kamligining belgisi bo'lib, chinakam madaniyat va ziyolilikka aloqasi yo'qdir. Tarbiyalilik ziyolilikning asosiy belgisi bo'lib, uning umumiy madaniy saviyasi ko'pincha nutq madaniyatida aks etadi.

Madaniy nutq avvalo to'g'ri nutq demakdir. Madaniyatli kishi obrazli, ifodali va chiroyli nutq orqali o'z fikrini bayon qiladi.

Ziyolining estetik didi baland bo'ladi, ya'ni san'at asarlarining go'zalligi to'g'risidagina emas, balki kishilarning, tabiatning va jamiyatning go'zalligi haqida fikr yuritishga, qo'pollik va adolatsizlikka qarshilik ko'rsatib uni bartaraf qilishga qodir bo'ladi. Hamma narsada meyor va uyg'unlik tuyg'usi ziyoilikning yuksak xususiyatidir.

Ziyolilik bilim, ilm va tarbiya bilan kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga umumiy madaniyatdan tashqari qalb nozikligi, umuman, hayotga munosabatda yuksak ong, ijtimoiy faollik ham kiradi. Demak, «ziyolilik» tushunchasi faqat aqliy mehnat kishisiga taalluqli emas. Ziyoli deb chuqur intelegentga, intuitiv oliyjanoblikka ega bo'lgan, ma'naviy ehtiyojlari keng har bir kishini atash mumkin. Madaniyatshunoslikni o'rganishdan maqsad ziyolilikni tarbiyalashdir. Ziyoli-intelektual shaxs, uning madaniyatli kishidan farqi, jamiyat va millat taqdiriga ma'naviy javobgar bo'lgan shaxsligidadir. Intellektual shaxs individual holatlarda o'z fikridan qanoatlanmaydigan, o'ziga-o'zi qarshi boruvchi, o'zini-o'zi inkor qiluvchi ichki xususiyatlarga ega bo'lgan ziyolidir. Ziyolining shu xususiyatlarida komillik belgilari namoyon bo'ladi.

Shaxsning komillikka erishuvini ta'minlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatini rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongliligini oshirish, axloqiy va estetik nafosatini tarbiyalashda madaniyatning tarkibiy qismlari, sohalari katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jihatdan farqlanishiga ko'ra insonning mehnat madaniyati, munosabat madaniyati, axloq madaniyati, badiiy-tafakkur madaniyati, dunyoqarashi ruhni olami haqida gapirish mumkin. Madaniyat ijtimoiy tuzilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakkurni, axloqiy-estetik qadriyatlarni, axloqiy-huquqiy nizomlarni, urf-odat va an'analarni qamrab oladi.

Shaxs madaniyatining shakllanishida jamiyat madaniyatining quyidagi tizimlari ahamiyatlidir:

siyosiy madaniyat- kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy- huquqiy g'oyalar majmui bo'lib, ma'naviy qadriyatlarning maxsus tizimini tashkil qiladi. Bu madaniyat tarixiy taraqqiyot bosqichlarida jamiyatning ijtimoiy tabaqalari manfaatlari bilan bog'liq holda vujudga kelib, jamiyat siyosiy faoliyatiga uzviy bog'liq. Siyosiy madaniyat, siyosiy faoliyat sifatida, ya'ni insonlar faoliyatidagi tabiatni qayta yaratish va o'zlarini tarbiyalash jarayonlarini qamrab olib, «siyosiy ishlab chiqarishni» aks ettiradi. Bunda siyosiy faoliyat amaliy jihatdan ijtimoiy guruhlar (sotsium) ning siyosiy hokimiyat uchun bo'lgan harakatlarini ifodalaydi, ma'naviy-nazariy jihatdan esa ijtimoiy munosabatlarni tabaqaviy dunyoqarash ruhida anglash, muayyan siyosiy g'oyalar, dasturlar ishlab chiqish va targ'ib qilishni nazarda tutadi. Umuman, siyosiy madaniyat kishilar faoliyatining manfaatli va tabaqaviy jihatdan o'ziga xos shakli bo'lib, siyosiy munosabatlarni tabaqalar, shaxslar tomonidan faol o'zlashtirish jarayonini bildiradi. Siyosiy madaniyat tarkibiga: mafkura, siyosiy tajriba va an'analar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy faoliyat usullari kiradi.

Siyosiy madaniyatning mavjudlik usuli: jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi; amaliy siyosiy madaniyatdan iboratdir. Jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi- davlat boshqaruvining tarixiy tajribasi, siyosiy faoliyat vositalari, usullari, siyosiy bilimlar majmuidir. Amaliy siyosiy madaniyat esa- jamiyat, guruh, shaxs siyosiy hayotidagi mavjud madaniyatdir.

Siyosiy madaniyat sotsial namoyon bo'lish shakli jihatidan jamiyat siyosiy madaniyatini sotsial guruhlar va shaxs siyosiy madaniyatiga ajratish mumkin. Jamiyat siyosiy madaniyati taraqqiyotning ma'lum bir bosqichidagi siyosiy-ijtimoiy qadriyatlar, siyosiy tuzilmalar, siyosiy faoliyat usullarining majmuidir. Shaxs siyosiy madaniyati esa, individ tomonidan jamiyatning siyosiy, mafkuraviy va ijtimoiy-ruhiy qadriyatlarini va usullarini o'zlashtirilishi hamda amalga oshirishi tizimidir. Shaxs siyosiy faoliyatida siyosiy madaniyatni bilish va amaliy faoliyatda qo'llash darajasining o'zaro bog'liqligi, yaxlit birligidan siyosiy madaniyat tarkib topadi.

Siyosiy madaniyat taraqqiyoti huquqiy madaniyat bilan bog'liqbo'lib, bu faqat qonunlarni bilish, huquqiy saviyadagina iborat bo'lmay, qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. Umuman, huquqiy madaniyat- huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, huquqiy faollikning birlikda namoyon bo'luvchi ma'naviy qadriyatlar tizimidir.

Iqtisodiy madaniyat tushunchasida iqtisodiy bilimlar va fikrlar uslubi bilan faol ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik omillari namoyon bo'ladi. Iqtisodiy madaniyat mazmunida madaniyat va iqtisodning o'zaro ta'sir xususiyatlari mavjud bo'lib, tarkibiga iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy munosabatlar kiradi.

Iqtisodiy ong avvalo, kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarishda o'z o'rnini anglashini bildirib, rasional bilimlarni, emotsional tuyg'ularni o'zida ifodalaydi. Iqtisodiy faoliyat tarkibiga moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish, mehnat va mehnat mahsulini o'zgartirish ham kiradi. Iqtisodiy faoliyat sub'ekti insondir. Mukammal fikr va yuksak ong faoliyatda moddiylashsagina iqtisodiy madaniyat hodisasiga aylanadi. Iqtisodiy tafakkur bilan iqtisodiy ong iqtisodiy odobning mezonini bo'lib, iqtisodiy ong faoliyatning fikriy obrazidir.

Ijtimoiy munosabatlar iqtisodiy madaniyatning asosini tashkil qilib, ijtimoiy-iqtisodiy ongni belgilaydi, ularda o'z ifodasini topadi. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlar ishlab chiqarish darajasini emas, balki mulk, taqsimot, iste'mol bilan bog'liq munosabatlarni aks ettiradi. Iqtisodiy munosabatlar nomoddiy sohalarining ham qismi sifatida faoliyat jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi, jamiyat iqtisodiy madaniyatini ifodalaydi. Iqtisodiy madaniyatning mazmunini kishilarning turli sohalarda maqsadga muvofiq ijodiy faoliyati, yangi sifat natijalarini tashkil etadi.

**Qadriyat** deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ular mohiyatiga ko'ra turlarga bo'linadi.

Avvalo, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar: yer va yer osti boyliklari, boshqa tabiat ne'matlari katta ahamiyat kasb etadi. Inson mehnati, aqli bilan yaratilgan moddiy boyliklar moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Madaniy-ma'naviy qadriyatlarga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar yaratgan boyliklar mansub. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: erkinlik, tenglik, birodarlik kabilar ham o'rin tutadi. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida istiqlol tufayli qo'lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyatga ega.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'alarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar mazmuni jihatdan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishiga muvofiq keladi.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liqbo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Bular: yer yuzida ilm-fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, qirg'in qurollarini to'xtatish, tabiatni muhofaza qilish va hokazolardir<sup>2</sup>.

O'zbekiston o'z mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rinni egallash jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda kishilar tafakkurida tubga o'zgarish,- milliy g'oya- milliy-mafkurani shakllanish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon uchinchi ming yillik arafasida amalga oshmoqda. Shu munosabat bilan Respublikamizning birinchi prezidenti

I. Karimovning quyidagi soʻzlari oʻta ibratlidir: «Biz kelgusi asrga oʻzimiz bilan nimani olib oʻtishimiz mumkin? Va nimalardan voz kechishimiz darkor?. Yangi ming yillikda qanday muammoalrning yechimi bizning diqqat eʼtiborimiz markazida turmogʻi lozim?»<sup>3</sup> «bu fikr madaniy va maʼnaviy merosimiz muammolarini hal qilishda asosiy dasturiy amaldir.

Madaniy meros- bu oʻtmishdan qolgan qadriyatlar, gʻoyalar, tajriba, bilimlar ularni oʻzlashtirish yoʻllari, yaʼni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalardir. Oʻzlashtirish yoki aniqrogʻi, madaniy meros jarayoni oʻta muhim boʻlib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning oʻtmishi, buguni va kelajagini bir butun holda birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuqlarga aylanadi. Bor narsani izlash, maʼlum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf etish kerak boʻlmaganidek, oʻtmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib jamiyat oʻz maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yoʻllarini tanlaydi. Bundan tashqari maʼnaviy meros kishilarning saviyasini behad kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai boʻlib

Oʻtmish bilan batamom uzilish mumkin emas. Insoniyat tarixida mutlaqo yangi madaniyat yaratishga urinishlar boʻlgan, biroq bunday urinishlar hunuk natijalarga olib kelgan. Bunga 1920 yillarda Sovet Rossiyasida «proletar madaniyatini» yaratishga urinishni yoki «madaniy inqilob»ni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu «inqiloblar» jarayonida yangi madaniyat yaralmadi, aksincha bori ham qilindi: qoʻlyozmalar, kitoblar, suratlar yoqildi; meʼmoriy yodgorliklar buzildi, eng achinarlisi madaniy qadriyat egalari mavx qilindi. Oqibatda oʻtmish bilan bogʻliq uzviylik buzilib jamiyat maʼnan orqaga ketdi. Madaniyatning meyoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Maʼnaviy qadriyatlarning mundarijasi, ularni qayta koʻrib chiqish va qayta baholash, ularning oʻzaro bogʻliqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot meʼyorlari, voqelikni estetik idrok qilish xususiyati oʻzgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz harakatda boʻladi. Meros serqirra va koʻp qiyofalidir. Uning aniq namoyon

bo'lishi tiplarning ko'pligi, tendensiyalar xilma-xilligi bilan farqlanadi. Har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi o'tmishdoshlarning tajribasidan madaniyatning turli sohalarida farqlanadi: san'atdagi o'lcham fandagidan boshqacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqli. Vorislik (meros) har qanday sohada insonning haqiqiy o'zlashtirishida namoyon bo'ladi, va ayni paytda mahalliy yoki dunyo miqiyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin. Vorislikning mahalliy (cheklangan) shakli madaniyatning kasbiy (professional), milliy, etnik va boshqa ko'rinishlariga ega. Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir meyorda, tekkis yo'nalish shakllarida bo'lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o'tishi notekis bo'ronlar xususiyatiga ega. Insoniyatning ma'naviy yutuqlarini meros qilib qoldirishda vorislik keng miqyosli (umumiy) shaklda jarayonlar muffasal yo'nalishda amalga oshadi. Masalan, qadimgi misr zakovati «injil», «1001 kecha ertaklari» kabi madaniyat yodgorliklariga ijobiy ta'sir qildi. Yana, yer yuzidagi barcha xalqlarning zamonaviy bilim sohalariga zamin bo'lgan bobil astronomiyasi, hind matematikasi, antik falsafa, rim huquqi haqida ham shunday gapirish mumkin. Agar madaniyat va ma'naviyat sohaları tarkibida til, udumlar, an'analar va boshqalar bo'lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan, san'at kabi sohalaridagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi.

Keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilar qadimdan amal qiladi, bu – namoyish qilish, og'zaki uzatish, folklor, san'at; boshqa usullar keyinroq paydo bo'ldi, bu – kino tasviri, ohongrabo yozuvi, kompyuter xotirasi. Barcha jamiyatlarda ham haqiqatdan ma'naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini o'zgartirish sharoiti bir xilda emas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog'liq. Bizga ma'lumki sovet jamiyatida kommunistik g'oya hukmronligi davrida xalqlar, xususan o'zbekistonda ham o'zining haqiqiy tarixiy, milliy va ma'naviy merosidan mahrum etilgan edi.

Umuman, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo'lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo'lishi mumkin emas.

Madaniy merosning mexanizmi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Ma'naviy merosning uzviyligi. Ajdodlar yaratgan ja'miki boylikka yangi avlod merosxo'r bo'ladi, tarixiy ahamiyatini yo'qotgan madaniyat o'rnida yana madaniyatlar vujudga keladi, avvalgilardan ko'p narsalar o'zlashtiriladi. O'tmish tajribasi bugun va kelajak uchun har doim asqotiqishi mumkin, shuningdek, bugun unitilgan narsalar butunlay yo'qolib ketmaydi. Masalan, U. Shekspir yuz yilcha unitilib, keyingi avlodlar uchun jahon adabiyoti va dramaturgiyasining klassigi sifatida tanildi.

2. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning o'zgarishi. Madaniy merosning o'tish davrida xususiyati o'zgarishi mumkin. Ya'ni, milliy g'oya mavjud nuqtai nazar va bilimlar talabiga mos keluvchi yangi talqindagi mazmun kasb etadi. Mana shunday ko'rinishda u kelajakka meros bo'lib o'tadi. Bizning kunimizgacha suqrot va demokrat asarlarining asl nusxasi saqlanib qolmagan, biroq har bir avlod ularning g'oyasini o'zi uchun yangitdan kashf qiladi va ularning falsafasini talqin qiluvchi minglab kitoblar yaratiladi.

3. O'tmishdan qolgan barcha narsalar butunlay o'zlashtirilmaydi, balki yangi davr va talabiga, ruhiga javob beruvchi, mohiyatan zarur narsalargina olinadi. Hozirda eskirgan va kerakmas deb hisoblangan narsalar, kelajakda balki yangi mohiyat va muhim ahamiyat kasb etar. Allaqaysi davrda qolib ketgan kiyinish usuli kutilmaganda odatga aylanishi mumkin. Yangi hayot qadim donishmandchiligidan g'oya oladi.

## **1.2.O'zbekistonda amalga oshiralayotgan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy islohotlar tahlili**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 31 maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3022-sonli qarori talablari va 2017 yil 3 avgustdagi

“Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida Prezidentimizning mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvi hamda 2018 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi: ustuvor vazifalar, reja va loyihalar xulosalaridagi ustuvor vazifalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektordagi nutqidan kelib chiqqan holda shunday hulosalar qilish lozimki, insonlarning ma’naviy dunyosini, jamiyatda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirmay turib ko‘zlagan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi.

Qisqa vaqt ichida yurtimizda keng islohotlar amalga oshirildi. Birgina adabiyot sohasidagi, madaniy siyosatga nazar tashlasak, ulkan o‘zgarishlarni guvohi bo‘lamiz desak, adashmagan bo‘lamiz. O‘zbek tilini davlat tili deb e’lon qilinishi bu olam shumul voqea bo‘lish bilan birga adabiyot sohasi uchun ham, keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy - ma’naviy bog‘liqlik til orqali namayon bo‘ladi. Jamiyki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilinig betakror jozibas bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Har bir millatning dunyoga borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oynaiy hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdir. Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo‘yicha taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus kamissiya tashkil qilindi. Kamissiya a’zolari aholining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr – mulohazalar atroflicha o‘rganilib, respublika rahbariyati va keng jamoatchilikka doimiy ahborot berib borar edi.

Nihoyat, 1989 yilning 19- oktabr kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Shu tariqa o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bu xalqimiz uchun adabiyot ixlosmandlari uchun olamshumul voqea edi. Endi adabiyot egalari o'z tilida erkin ijod qilish imkoniga ega bo'ldilar. Adabiyot gulshanida turli xil ijodkorlar o'z ijodlarini namoyon qila boshladilar. Ular matbuotda o'z asarlari va ijod namunalari bilan faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Ijodkor yoshlarni qo'llab quvvatlash maqsadida Zulfiya nomidagi davlat mukofoti joriy etildi. Ayolni muqaddas bilish, unga ehtirom ko'rsatish, ozod yurtimiz kelajagi bo'lgan. Har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor e'tirof etish, barkamol oqila xotin – qizlar avlodini voyaga yetkazish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari tengdoshlarining milliy istiqlol g'oyalari va madaniy – ma'rifiy qadriyatlarga e'tiqodining yuksalishi yo'lidagi ibratli faoliyati, keng ko'lamli islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtirokini rahbatlantirish maqsadida.

O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasi, «Fanlar akademiyasi», «Badiiy akademiya», «Manaviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, Yozuvchilar, Bastakorlar, Me'morlar uyushmalari, «Oltin meros», «Ulug'bek», «Navro'z» jamg'armalari va keng jaoatchilikning Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etish bo'yicha o'z fikrlarini taqdim etdi.

Mukofot 1999 yil 10- iyunda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning farmoniga binoan joriy etildi. Bu mukofot maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlarida a'lo hulqi, o'qishdagi mufaqqiyotlari ijtimoiy faolligi bilan a'loxida iste'dodini namoyon qilib ta'lim olayotgan, istiqlol g'oyalarini amalga oshirish yo'lida astoydil mehnat qilayotgan 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, fan ta'lim ijod qilayotgan 14 nafar qizlarga beriladi. Xujjatlarni taqdim etish va rasmiylashtirish

tartibi respublika xotin- qizlar qo'mitasi qoshidagi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti kamissiyasi tomonidan belgilanadi. Mukofotni qo'lga kiritgan qizlarga tantanali ravishda ko'krak nishoni va sovrindorlik yorliqlari topshiriladi. Mukofot takroran berilmaydi. Zulfiya nomidagi mukofotni qo'lga kiritgan sovrindorlar eng kam ish haqining 50 baravar pul miqdori va o'z yo'nalishlari bo'yicha oliy o'quv yurtiga imtihonsiz kirish huquqiga ega bo'ladilar. Bunday ijodiy imkoniyatlar barcha ijodkor yoshlarni yanada ilhomlantiradi va yanada katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Ular o'zlariga berilgan mukofotni oqlash maqsadida , bor kuchini ishga solib, vatanimiz taraqqiyoti uchun , uning ravnaqi uchun , barcha imkoniyatlarini ishga solgan holda ijod qilib kelmoqdalar bugungi kunga kelib , adabiyot sohasini yanada takomillashtirish va bu sohada ijod qilayotgan insonlarni bir joyga to'plash maqsadida Yozuvchilar uyushmasi tashkil etildi va barcha viloyatlar bo'ylab uyushmaning markazlari tashkil etildi do'rmon qarorgohi ijodkorlar qarorgohiga aylantirildi yillar davomida mehnat qilgan fidoiy ijodkorlarga “O'zbekiston xalq yozuvchisi “ O'zbekiston xalq shoiri” “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi” kabi davlat mukofotlarini choriy etilishi ham bu adabiyot sohasiga qaratilgan , yuksak e'tibor namunasidir.Bugungi mustaqil zamonda har bir ijodkor insonlarga barcha sharoitlar mavjuddir. Ijodkor yoshlarni topish maqsadida ko'pgina ishlar amalga oshirildi va bir qator tanlovlar joylarda o'tkaziladi Bu tanlovlardi qo'llab-quvvatlash massuliyati “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakat”ining joylardagi bo'limlari vazifisiga yuklatilgan. Masalan, Zulfiya tavalludinig yuz yilligi munosabati bilan joylarda Zulfiyaxonim izdoshlari, kabi tadbirlar keng miqyosda o'tkazildi yoki Muhammad Yusuf tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirni olaylik bunday tadbirlar mudrab yotgan tuyg'ularni uyg'otadi va ijodkor insonlarni bir birlari bilan fikr almashishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda yurtimizda madaniy siyosatga e'tibor Har tomonlama e'tiborda ekanligi kishini hayratga soladi. Bunday e'tibor o'sib kelayotgan, yosh avlod qalbiga, g'urur iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Ularning qalbiga insonparvarlik, vatanparvarlik,

tuyg'ularini uyg'otadi. O'zlariga bo'lgan kelajakka bo'lgan ishonch ertangi kunga umidvorlik paydo bo'ladi. Ajdodlar merosiga hurmat ruxida tarbiyalanadi. Birgina fakt 1991 yil buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 -yilligi keng nishonlandi. Shu yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Alisher Navoiy mukofoti ta'sis etildi. Yubeley yilida "Lison ut tayr", "Sabba'iy sayyor", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Hayrat ul abror" asarlari nashr qilindi va kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. 1991 yil 28- sentabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ining ochilishi marosimi bo'lib o'tdi. Yoshlarga bu ulug' zotni namuna qilish maqsadida ilmga chanqoq talabalarga Alisher Navoiy sitependiya ta'sis etildi. Bir so'z bilan aytganda mustaqillik bizga o'zligimizni ajdodlar merosini asrab, avaylash va ularga munosib voris bo'lish kerakli uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Birgina misol Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz kurashchilari Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqa ijodkorlarni nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Ularning tavallud topgan kunlari umummilliy bayram sifatida nishonlandi. Adabiyotdan ijod maydonidan erta ketgan adiblarimiz mustaqillik tufayli nomlari qayta tiklanib davlat mukofoti bilan taqdirlandi ularning nomi abadiy bo'lishi uchun, shahrimizdagi ko'chalar bog'larga nomlari qo'yildi. Masalan "G'ofur G'ulom" bog'i, "Bobur bog'i", Abdulla Qodiriy bog'i" shular jumlasiga kiradi. Adabiyot sohalaridagi yutuqlarni sanasak, adog'i yo'q. Bugungi dorul omon kunlar adabiyotni mustabit tuzimning tuzog'idan asrab qoldi desak adashmagan bo'laman. Shunday ekan, har bir inson atrofiga nazar solib, jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rib ulardan zafqlana olish kerakligini anglab etishi kerak deb o'ylayman. Biz birgina adabiyot sohasidagi islohotlarga to'xtaldik, xolos, shu o'rinda adabiyot bilan birga san'at sohalari ham, keng ko'lamda islohotlar olib borildi har bir xalqni san'at va sportchalik dunyoga tez tanitadigan soha bo'lmasa kerak. Shu o'rinda san'at sohalaridagi o'zgarishlarga to'xtalsak. O'zbekiston o'z mustaqillikka

erishgach san'at sohalarini rivojlantirish maqsadida, katta pul mablag'lari ajratdi so'zim isboti sifatida san'at sohalarining bir qator tarmoqlari bilan tanishamiz.

**Musiq**a va **raqs** san'ati O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida 1996 yilda "O'zbeknavo" gastrol konsert birlashmasi (2001 yildan "O'zbeknavo" estrada birlashmasi nomini olgan) Unda musiqa va raqs san'atini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvatlash masalalari ko'zda tutildi. San'atni barcha sohalar, madaniy, marifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika Prezidentining doimo e'tibor markazida bo'lib keldi. Xususan, birinchi prezidentimiz I. Karimovning 1996 yil 31 dekabrda "Musiqqa tahsilini yaxshilash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, o'quv yurtlarida 6,5 ming dona musiqa anjomlari ajratildi.

Islahotlar davrida sovetlar davridagi madaniyat o'quv ishlari qayta tuzilib ko'plab yangi o'quv maskanlari tashkil etildi. 90 yillar oxirida mamalakatda 27ta maxsus o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi. Shundan bittasi oliy o'quv yurtlari 20ta o'rta - maxsus bilim yurtlari, 2 ta maktab-internat.

Mustaqillik yillarida milliy qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlar vazirligi, 1992 yilda tashkil etilgan "Xalq ijodiyoti va madaniy ma'rifiy ishlar respublika Markazi", uning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor san'atini rivojlantirish, unitilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli hil ko'rik tanlovlar, festevallar tashkil etildi. Ushbu faktlarni isbotlash maqsadida, 2005 yil 18 -22 may kunlari Boysun tumanida xalqaro "Boysun bahori" to'rtinchi ochiq folklor festivali bo'lib o'tdi. Maskur festival O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlar vazirligi, O'zbekistondagi Yunesko vakolathonasi", "Boysun" jamg'armasi hamda Surxondaryo viloyat hokimligi hamkorligi tashkil etilgan bo'lib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan folklor etnografik jamoalari, baxshi shoirlar, oqinlar, halfalar liboschilar, kurashchilar ishtirok etdilar. Festivalda AQSH, Ispaniya, Italiya, Fransiya va Tojikiston respublikasidan kelgan mehmonlar ishtirok etganlar. Festivalda jami respublika

miqyosda 36 ta jamoalar ishtirok etdi. Bunday festivallar yurtimizdagi o'zgarishlarni o'zga millat vakillariga ko'rsatish bilan birgalikda qadimiy va qadrlan'analimizni yana bir bor xalqimizga namoyon etish maqsadida bunday xalqaro tadbirlar juda muhimdir.

Katta ashula, lapar va o'lan ijrochilarining "Ko'hna zamin ohanglari" respublika tanlovi O'zbekiston Respublika birinchi Prezidenti I.Karimovning 2009 yil 1- apreldagi "O'zbekiston Milliy telaradiokompaniyasi tizimida yuqori texnologiyali teleradio uskunalari bilan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ -1088 son Qarorining 8-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 - oktabrdagi "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish , asrash targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi 222- sonli qarorining 41 bandi ijrosini taminlash Qoraqalpog'iston Respublikasi , Toshkent shahri va viloyatlarda faoliyat olib boradigan katta ashula lapar va o'lan ijrochilari ijodiy faoliyati bilan xalqimizni yaqindan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Shu bilan birgalikda Toshkentda " Asrlarga tengdosh navolar " va "Boqiy ovozlari " , Xorazm viloyatida folklor jamoalari askiya , qiziqchi, va masxarabozlarning , Qo'qonda katta ashula lapar va yalla ijrochilarining ko'rik tanlovi o'tkazildi. 1994 yil may oyida Parijda bo'lib o'tgan " Sharq musiqasi " festivalida Munajat Yo'lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoish etdilar .

Respublikamizning birinchi Prezidentining 1996 yil 27- avgustdagi "O'zbekiston – Vatanim manim " qo'shiqlar bayrami to'g'risidagi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.1996 yilda o'tkazilgan barcha viloyat shahar va tumanlarda "O'zbekiston –Vatanim manim qo'shiq tanlovida 54 mingdag ziyod qo'shiqchilar qatnashdi. Bunday ko'rik tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi va avgust oyining uchinchi yakshanbasi "O'zbekiston-Vatanim manim " qo'shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan mustaqillikni e'zozlovchi yuzlab

qo'shiqlar yaratildi. "O'zbekiston- Vatim manim", "Men seni sevaman, O'zbekiston", "Vatan yagonadir", "Mustaqillik gullari", "Ona yurtim", kabi qo'shiqlar shular jumlasidandir. Shu bilan birgalikda yurtimizda ijod qilayotgan yosh iste'dodlarga ham keng imkoniyatlar yaratilgan ularni qobiliyatlarini munosib baholash maqsadida davlat mukofotlari choriy etildi. Shunday davlat mukofotlaridan biri "Nihol" mukofotidir. Ushbu mukofotga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yosh Istedodlar** uchun "Nihol" mukofoti 2000 yil 25- avgustda choriy qilindi.

"Nihol" mukofoti iste'dodli yoshlarning jamiyatimiz ma'naviy hayotini yuksaltirishdagi muhim o'rnini inobatga olib o'zining estrada, musiqa, mumtoz qo'shiq, raqs va opera san'atini ijrochiligi sohasidagi mahorati bilan odamlarning yuragiga etib boradigan, yoshlarni ezgullikka chorlaydigan ularni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan asarlar yaratishda faollik ko'rsatayotgan 17 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan iqtidorli yoshlarni muntazam rahbatlantirib borish maqsadida beriladi. Har bir o'rinda munosib nomzodlar tanlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tanlov o'tkaziladi. Tanlovning birinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasining tuman va shaharlarida o'tkaziladi. Talabgorlar hujjatlarini tuman va shahar madaniyat va sport ishlari bo'limlari huzurida tuziladigan ishchi guruhga taqdim etadilar. Tanlovda g'olib bo'lgan sovrindorlar bir qator imtiyozlar beriladi. Nihol mukofoti aks etgan sovrin eng kam ish haqining 70 baravarida pul miqdori va o'z yo'nalishlari bo'yicha oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bir so'z bilan aytganda davlatimiz tomonidan qaratilgan bunday yuksak e'tibor zamirida faqat yurtimizni yanada rivojlantirish davlatimizni jahonda o'z o'rnini yanada mustahkamlash yotibdi desak adashmagan bo'lamiz.

Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston istiqlolga erishgach san'at sohalarining nufuzi oshib bordi. Birgina 1997 yil 11- martda qabul qilingan Respublika hukumatining "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish

, rivojlantirish dasturamal bo‘lib xizmat qildi. 1997 yil 25 -avgust 2- sentabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Sharq taronalari “ birinchi xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamalakatidan ijrochilar , san’atshunoslar , jamoat arboblari ishtirok etdi. Festivalda yangragan o‘zbek ohanglari jahon o‘zra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda “ Sharq taronalari “ o‘tkaziladi . Bunday festivallar xalqimiz nomini dunyoga tanitish bilan bir qatorda milliy madaniyatimizni qadriyatlarimizni o‘zga xalqlarga tanitish imkonini berish bilan barobarida turizm sohasini yana bir bora rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. O‘zbekistonda musiqa , raqs va qo‘shiqchilik san’atini rivojiga har yili 31 -avgust va 21 -mart kunlari o‘tkazilayotgan Mustaqillik va Navro‘z kunlariga bag‘ishlangan bayram tantanalari ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. San’at sohasi katta yo‘nalishga egadir. Shunday yo‘nalishlardan biri .

**Me’morchilik va amaliy san’at.** Mustaqillik yillarida shaharsozlik va arxitektura qurilishi misli ko‘rilmagan darajada avj oldi. Me’morchilikda ikki asosiy tamoyil ko‘zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me’morchilikning an’anaviy qonun qoidalariga rioya qilishdir . Bu tamoyil Temuriylar davlat muzeyi , Turkiston saroyi, Oliy majlis, Toshkent shahar hokimiyati timsolida ko‘rish mumkin. Memorchilikning ikkinchi tamoyili O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me’morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo‘lmoqda. Bunday binolar jumlasiga “Afrosiyob”, “ Sheraton” mehmonhonasi , “ Milliy “ bank, Markaziy bank, Respublika birja markazi, O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin. O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borildi. Bunga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz kabi qadimiy shaharlarda o‘nlab binolar obidalar qad ko‘tarmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga tadbqiq etish maqsadida yuzlab akademik litseylar , kollejlari qurildi. Bir suz bilan aytgan me’morchilik san’ati bilan bir qatorda amaliy san’at ham rivojlana bordi halqimiz ongida yangidan- yangi fikrlar uyg‘ondi. Zamonaviy

binolarimizga nazar solsak o'zbekkona uslibni ko'ramiz misol tariqasida Oliy majlis binosini olaylik, bu binoning peshtoqi gumbazsimon birgina, shu binoga boqsangiz, qadimiy binolarimizning zamonaviy ko'rinishi ko'rishimiz mumkin. Me'morchilik bilan birgalikda amaliy san'at ham rivojlanib etuk asarlar yaratildi. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik kabi amaliy san'at turlari tiklandi. Yangi ma'no mazmun bilan rivojlanib bormoqda. **Tasviriy san'at va rassomchilik san'atining rivojiga 1997 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi va "Tasviriy oyna"** respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi. O'zbekiston rassomlari xalqimiz ongiga milliy g'urur Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlarini yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi. Binolarning devorlari odamlarga huzur – halovot, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston o'zining qisqa vaqt davomida o'z o'rniniga ega bo'ldi. San'at va adabiyot sohalariga ko'rsatilayotgan madaniy siyosatning asl mohiyati fikrimcha xalqimiz va **yoshlarimiz ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish bilan bir qatorda targ'ib qilishda san'at adabiyot va radiyo televideniyaning o'rnini alohida ta'kidlash lozim desak adashmagan bo'lamiz. Shu o'rinda ushbu jummalarni keltirish maqsadga muvofiq deb bilaman.**" Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyo qarashi va mentalitetiga asoslangan ayni vaqtda shu xalq, "Shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning o'rnini aniq va ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'liga qodir g'oyani men jamtyat mafkurasi deb bilaman." (13) Bir so'z bilan aytganda bizdagi barcha sohadagi islohatlar ezgulik g'oyasi bilan sug'orilgandir.

**Muzeylar** - millatimizning o'zligini anglashda milliy tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Moddiy madaniyatimizning asosiy sohalaridan bittasi muzeylar hisoblanadi. Muzeylar

tarixiy yodgorliklar maskani, adabiyot, san'at, urf –odatlar, hayot obrazlarimizning moddiy va mayishiy jihatdan bir ko'rinishi, kuzgusi, tasviri. Muzeylar qadimiy san'at va madaniyat asarlarining yig'indisi asrab saqlanadigan go'zal saroyidir. Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, mumkin. 1992 yilda Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, 1993 yilda Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olim Xadicha Sulaymonova muzeyi raqqosa Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi, ochildi. 1996 yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoga yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuxrat muzeyi ochildi Bu muzeyi o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan mamlakatimizda sport harakatining rivojining rag'batlantiradigan markaz bo'lib qoladi. 1996 yil Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni yaqinida Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil bo'lishi ma'naviy- ma'rifiy hayotimizda o'zbek davlatchiligi tarixini, anglashda muhim ahamiyat kasb etmoqda Muzeyi har yili 100 mingdan ziyod tomashabin kirmoqda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaxarlar ro'yxatiga kiritilgan 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik 1800 monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey qo'riqhonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar me'moriy obidalar, san'at asarlari saqlanib qolgan. Ma'lumotlarga ko'ra 2000 yil O'zbekiston Respublika madaniyat ishlari vazirligi tasarrifudagi jami muzeyi 1.350 ming eksponentlarga ega bo'lgan. Hozirda ularning soni yana <sup>2</sup> boyitib bormoqda. 1998 yilda "O'zbekmuzeyi" Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyishunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999 yildan boshlab, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. 1999 yil davlat qaromog'idagi muzeylar 81tani tashkil etdi. Shulardan 15 tasi tarix muassasa, 23 ta o'lkashunoslik, 10ta badiiy san'at koshonasi, 20ta memorial, 8ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylari, shuningdek mamlakatning shaharlari va

tumanlarida 510 muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda. Muzeylar ham madaniy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu borada insonlarni muzeylarga tashrifini tashkil etish muhim, aniq izlanishlarni talab qiladigan jarayondir.

### **Teatr va kino sohasidagi islohotlar.**

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy ma'riviy islohotlar jarayonida teatr san'ati ham rivojlandi. 1991-1994 yillarida bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993 yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlangan "Turkiston" saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlar va atoqli artistlarining chiqishlari bo'ladigan dargohlarga aylandi. Andijonga jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri Abbas Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning 1995 yil 20 – oktabrdagi "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atining yanada rivojlantirishni qo'llab - quvvatlash va rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 1998 yil 26-martdagi "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoniga binoan Madaniyat ishlar tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998 yilda "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tuzildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma'naviy olamini uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat hissini uyg'otuvchi spektakllar yaratishda iste'dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda teatrlarning moddiy – texniqaviy bazasini mustahkamlashda ijodiy hodimlarni ijtimoiy himoya qilishda bosh qosh bo'lmoqda Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995 yil bepul ajratilgan 47 mln iyen (1500 ming Aqsh dollari) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihslandi. Respublikamizda 41ta professional teatr faoliyat yuritmoqda.

Teatrlarning 90 yillarning ikkinchi yarmidagi repertuarlarda tarixiy pesalar keng o'rin oldi. 1996 yili Amir Temurning 660 yillik munosabati bilan 10 ta yangi spektakllar sahnalashtirildi. "Navro'z -97" teatr festivali

munasabati bilan Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14ta spektakl yaratildi. 1998 yili al-Fargʻoniy , al- Buxoriylarni yubileylariga bagʻishlangan asarlar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixi namoyish etuvchi spektakllar Toshkentni yatakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlaing teatr sahnalariga qoʻyildi. Muxtasar aytganda aytganda , ular ongiga Milliy istiqlol gʻoyasini singdira borish, vatanparvarlik tuygʻularini kuchaytirish , ahloqiy estetik tarbiya maktabi boʻlib xizmat qilmoqda. Nafaqat poytaxt, hatto viloyatlar teatrlar sahnalariga qoʻyildi. Muxtasar aytganda , Respublikamiz teatr sanʼati xalqimiz ayniqsa yoshlarimiz maʼnaviyatini boyitish ular ongiga Milliy istiqlol gʻoyasini singdira borish , vatanparvarlik tuygʻularini kuchaytirish , axloqiy estetik tarbiya maktabi boʻlib xizmat qilmoqda. Nafaqat poytaxt , hatto viloyatlar teatrida Oʻzbekiston madaniyatining chuqur tarixiy ildizlarini , uning xalqining bosqichlariga qarshi kurashishini aks ettiruvchi spektakllar qoʻyildi. Adabiyot va sanʼatning asrlarida bugungi obod va farovon hayot ,Respublika tinchlik va osoyishtalik uchun kurash aks ettirilmoqda. Yosh avlodni maʼnaviy va estetik tarbiyalashga katta eʼtibor bermoqda. Buning uchun hamma yosh bolalar teatrlari faoliyat koʻrsatmoqda Bir qator teatrlar jamoalari Amerika, Osiyo va Yevropa mamlakatlarida gastrollarda boʻlishni Dunyo Oʻzbekiston va Oʻzbek xalqini yaqindan bildi. Teatr haqida soʻz ketganda Respublikamizning birinchi prezidenti I.Karimov oʻz asarlarining birida manaviyatimizni uzviy qismi bu teatr Behbudiyning “Teatr –bu ibrathonadir “ , deb aytgan fikrini eslash mumkin. Bizning milliy teatr sanʼatimiz tarixan juda katta yoʻlni bosib oʻtgan boʻlib uning qadimiy ildizlari xalq oʻyin va tomosholariga borib bogʻlanadi. Lekin XX asrga kelib oʻzbek teatr sanʼati yangitdan yurtimiz va jahon miqyosida shakllangan davrlar sinovdan oʻtib kelayotgan anʼana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topgani eʼtirof etish zarur. Xususan, poytaxt teatrlarida namoyish etilgan dunyo sahna sanʼatining mumtoz namunalari oʻz vaqtida nafaqat yurtimiz balki chet el tomoshabinlarini ham hayratga qoldirgani bu fikrni isbotlaydi. Shu bilan birga

teatr ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan ko'plab milliy ruhda xorijiy mamlakatlarda sahna asrlari jorijiy mamlakatlarda ham mufaqqiyat bilan ijro etib kelindi. Ta'kidlash joiz-ki, hozirgi vaqtda respublikamiz teatrlarida turli mavzu va janralarda ko'plab spektakillar yaratilmoqda, o'ziga xos ijodiy izlanishlar davom etmoqda. Ayni paytda teatr san'atimizda ham bugungi hayotimizni zamonaviy qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan tomoshabinni o'ziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtayi nazaridan badiiy yuksak asarlar afsuski kam ekanligini tan olishimiz lozim. Aksincha, real haqiqatdan yiroq, odamga katta ma'naviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar kassasini to'ldirish holatlari ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini inobotga olishimiz kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug'orilgan asarlar yaratish barcha sana't turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo'lishi tabiiy. (14) Bir so'z bilan aytganda teatrlar insonni ma'naviyatining yuksalishiga muhim rol o'ynaydi chunki jonli sahnada rol ijro etish bu tomoshabinga katta ta'sir qiladi. 1998 yil 26-mart O'zbekiston teatr sana'tining rivojlantirish to'g'risidagi farmon o'zining amaldagi ijrosini ta'minlamoqda. 1998 yil 22-may o'zbek teatri ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi shuningdek, Vazirlar Mahkamasi 26 – avgust milliy g'oya targ'iboti va mahnaviy ishlarning saradorltgini oshirish to'g'risidagi qarorida teatr san'ati sag'na ijodkorlarinig oldiga turgan vazifalarni belgilab berdi. Mamlakatimizda 37ta teatr bo'lib, shulardan

**Opera teatri 1ta**

**Drama teatri 7ta**

**Musiqali drama teatri 11ta**

**Yoshlar teatri 2ta**

**Yosh tomoshabinlar teatri 2ta**

**Musiqiy teatrlar 3ta**

## **Qo'g'irchoq teatrlari 10ta**

### **Teatr studiyasi 1 ta rahbari Baxtiyor Yo'ldoshov**

Har yili teatrlarda 150 dan ortiq turli mavzudagi va janrdagi spektakllar sahnalashtiradi. Jumladan 2009 yil 147 ta 2010 yil 156 ta 2011 yil 163ta Respublika bo'yicha spektakillarni soni 710 ta 2012 yil holatida shundan milliy zamonaviy mavzuda 98 ta Jahon davlat universiteti 209 ta shundan 138 tasi rus tilida 57 tasi qoraqalpoq tilida spektakllar qo'yildi. O'zbekiston o'z mustaqilligi qo'lga kiritgach teatr tarixida ham katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu davrda teatrdagi quyidagi ilg'or tendensiyalar ijodiy izlanishlar ko'zga tashlandi .

**Birinchidan** teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog'i oshdi. Buyuk ajdodlarimiz allomalar, shoirlar, davlat arboblari lashkarboshilarning hayoti va taraqqiyot uchun xizmat qiladigan o'nlab sahna asarlar yaratildi. Sahnalarda sho'rolar davrida tilga olish man etilgan Bahouddin Naqshband, Hakim - at Termiziy Imom al- Buxoriy kabi allomalar " Avesto" kitobi asosida Zardushtiy hayotini yorituvchi sahna asarlari vjudga kelib davrimiz tomoshabinlari ma'naviyatini boyitdi. Tarixiy, diniy e'tiqodga nisbatan qarashlari o'zgardi. Ayniqsa Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma'naviy madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. **Ikkinchidan** Zamonaviy o'zbek teatrida tasavvuf bilan bog'liq Mashrab( milliy teatr), Xitoy malikasining siri (Rus teatrida) , "Umar Hayyom"(Yoshlar teatrida)," Na falakman na farishta", (Muqimiy teatrida) kabi spektakllar eng murakkab mavzularga qo'l yurayotganligi yangi manbalarni ochayotganlaridan dalolat beradi. Alisher Navoiy asarlari teatr sahnasida yangicha talqin etish boshlandi.

**Uchinchidan** zamonaviy talkin va vositalarda sahnalashtirish boshlandi. Navoiy , Sheksper , Qodir Chulpon , Avloniy , G'ofur G'ulom asarlarinig sahnaviy talqinlari guvohlik beradi.

**To'rtinchidan** , teatrlarda ilgari qoloqliq belgisi sifatida qarab kelingan etnografiya , va folklor manbalari vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy

yoʻnalish sifatida koʻzga yaqqol tashlanib sahna sanʼatining milliy oʻziga xosligini koʻchaytirishga xizmat qilmoqda. “Alpomish” qahramonlik dostoni asosida poytaxt va viloyat teatrlarida 10 ga yaqin sahna asarlari qoʻyildi.

**Beshinchidan** dramaturgiya va teatrdagi zamonaviy mavzularda asarlar yaratilib sahnalashtirish yildan yilga oshib bormoqda. Zamonaviy mavzular koʻproq melodramma, komediya, janrlar doirasi ishlanmoqda. Mustaqillik yillarida Fargʻona, Xiva, Namangan, Termiz shaharlarida, qoʻgʻirchoq teatrlari ishladi. Abbos Bakirov nomidagi jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib Andijon bolalar va yoshlar teatriga aylantirildi. (1990) Oʻzbekistonda oʻtkazilgan “Sharq va Gʻarb” teatr festivali, “Humo”, xalqaro yoshlar teatrlari festivali. “Navroʻz” “Andijon” bahori respublika teatr festivallari Germaniyaning “Ander Rur” teatri bilan “Muloqat” teatr studiyasi hamkorlikda tuzilgan “Ipak yoʻli” teatr sayohat loyihasi asosida oʻtkazilgan ikki tomonlama anjumanlar qoʻgʻirchoq teatrlari festivali teatr sanʼatining yangi ijtimoiy rivojlanishda muhim rol oʻynamoqda shu bilan birgalikda teatrlarimiz oʻzlarining sahna asarlari bilan dunyo yuzini koʻrmoqda.

## **II-BOB. IJTIMOIIY-MADANIY MASALALARNI HAL ETISHDA DAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARI HAMKORLIGI**

### **2.1. Davlat va jamoat tashkilotlarida maʼnaviy-maʼrifiy targʻibotning yangicha koʻrinishlari**

Oʻzbekiston mustaqilligining eʼlon qilinishi tub islohatlar va yangilanishlar davrini boshlab berdi. Istiqlool mamlakatimizning koʻp millatli aholisiga oʻz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-maʼnaviy yangilanishning ulkan istiqbollari ochib berdi. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki

kunlardan oq barcha sohalarida bo'lgani kabi millatlararo munosabatlar rivojida ham butunlay yangi ijobiy, o'zaro totuvlik, birdamlik kabi ijtimoiy-siyosiy vaziyat yuzaga keldi. Respublikamizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashab, davlatimizning mustaqilligini mustahkamlashda o'zlarining munosib hissalarini qo'shib, jamiyatning turli sohalarida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Birinchi prezidentimiz bu milliy hamjihatlik haqida haqli ravishda faxr bilan qo'yidagicha ta'kidlaydi, «bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo'lib yashashga imkoni yo'q, tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni shu ruhda tarbiyalagan»<sup>3</sup>. Darhaqiqat, mamlakatimizda millatlararo hamjihatlik, barqarorlikni ta'minlanishi yuzasidan jamiyatimizni barcha jabhalarida tub islohotlar o'tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratmoqda. Hozirgi sharoitda milliy manfaatlarni, etnomadaniy rivojlanish muammolarini har tomonlama o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik davridagi yangi milliy siyosat o'z ichiga boshqa millat kishilarning huquqlarini himoya qilish, milliy ozchilikning huquqlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, millatlararo ziddiyatlarni zudlik bilan amaliy hal etish, boshqa millat kishilarini ham hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyalash kabi insonparvarlik tadbirlarini amalga oshirishni qamrab oldi. Shuni nazarda tutib, Birinchi prezidentimiz I.Karimov "har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, umumtil, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondining, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish, unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i kerak",<sup>4</sup> deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda hozirgi davrda har bir millat, elatning o'zligini

---

<sup>3</sup> Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: "Маънавият", 2008, 9-бет.

<sup>4</sup> И.А.Каримов.Ўзбекистон аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.:Ўзбекистон. 1997, 22-23-б.

saqlash, ularning milliy taraqqiyotlarini ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda. Millatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda milliy madaniy markazlar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov doimo ta'kidlab kelganidek:

“...farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida, o'z fikru tafakkuri va zamonaviy bilimga ega bo'lgan vatanparvar etib voyaga yetkazish – barchamizning otalik va onalik burchimizdir.”<sup>5</sup> Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, ularni yuksak ma'naviyatli, ongi harqanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish – bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlarga kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “...aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot kamol topadi” degan so'zlari ayni shu ma'noni anglatadi. Bu esa har birimizning farzandlarimiz, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti, g'oyaviy chiniqishiga, har hil buzg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchi ruhida tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Aynan farzandlarning kamoloti – ertangi kunda barchamizning tinch hayotimizni ta'minlaydi. Buning uchun ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularga hurlik, ozodlik, demokratik tamoyillarga asoslangan

---

<sup>5</sup> Каримов И. “Биздан озод ва обод ватан қолсин”. Т. “Ўзбекистон”, 1994. 55-бет.

jamiyat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyat asoslari haqida tushuncha berish barchamizning burchimizdir”.

Turli millatlar ma’naviyatining o‘ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyat ellarni zidlashtirmaydi, balki birlashtiradi. Aslida umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o‘z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o‘zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o‘zaro ma’naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o‘zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo‘lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umummintaqa madaniyati, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqa madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo‘shni hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati - bularning har biri o‘zgasidan farq qiluvchi qator diniy e’tiqod, falsafiy maktablar, san’at va adabiyot, urf-odat va an’analarning o‘ziga xos uyg‘un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli basharning bunday bebaho mulkini, ma’naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborish mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog‘i lozim. Dushmanlik, g‘ayr ko‘zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug‘ haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o‘zgani tushunish uchun, o‘zgaga mehr ko‘zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o‘zligini anglab yetmog‘i kerak. O‘zligini anglamagan zot hech qachon o‘zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma’naviyatimizga bugungi

ayricha e'tibor ham ushbu o'zligimizni anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlari, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yoxud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlari zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma'naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo'layotganidek, o'zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zligimizga qaytish, o'zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi. **“Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”.**

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiatga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida kitoblarda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur qilish o'ta soddalik bo'lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol-tushunchalarining o'z ruhidagi poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zgalar ibratida sinashi, bu yo'lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko'nglida mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli yo'llar, turli vositalar bilan,

birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

“Bizning ulug' ajdodlarimiz, - deb yozadi Birinchi prezidentimiz, - o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli deb bilaman.”<sup>6</sup>

Shu gapga kichik bir misol:

Ma'lumki, imon-e'tiqod ma'naviyatning umurtqa pog'onasi hisoblanadi. Xalqimizda birovni “imonsiz” deb atash eng og'ir haqoratdir. Biz dinimiz islom deymiz, Qur'oni karimda yozilishicha, Alloh bani basharni o'ziga ibodat qilish uchun yaratgan. Lekin ko'pchilik islomiy ibodatlar deganda, namoz, ro'za, zakot, haj amallarini ko'z oldiga keltiradi. Buyuk tasavvuf piri Bahouddin Naqshband esa Rasululloh (sav)ning quyidagi hadisini keltiradi: “Ibodati o'n qismdir, uning o'ndan to'qqizi halol rizq topish harakati, qolgan barcha ibodatlar o'ndan birini tashkil etadi.” Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoniylarning piri murshidi hisoblangan shayx Yusuf Hamadoniyning “Hayot mezon” asarida Payg'ambarimizning yana bir hadislari keltiriladi: “Musulmon bo'lmaganlaringizcha jannatga kirmaysizlar, bir-birlaringizga samimiy mehr qo'ymaganlaringizcha musulmon bo'lmaysizlar.” Shu sababli biz farzandlarimizga imonning asosiy sharti halollik, adolat va insonga, tabiatga mehr debuqdirishimiz, nafaqat uqdirishimiz, balki shu yo'lda o'zimiz ibrat bo'lishimiz shart.

Birinchi prezidentimiz kitobida “inson ma'naviy olamining yuksalishi” deganda nimani tushunish kerak, degan savolga aniq va lo'nda javob berilgan: “Ollahning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish”. Ammo muallif yana ta'kidlaydiki, ushbu qoidani tushunish va

---

<sup>6</sup> И.Каримов "Озод ва обод ватан. Эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз." Т. "Ўзбекистон" 2000 йил 36 бет

e'tirof etishning o'zi kifoya emas, balki ayni shu e'tiqodga amal qilib yashash – “odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon”dir.

“Takror aytishga to'g'ri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur.” Prezidentning xushyorlikni yo'qotmaslik, beparvo bo'lmaslik xususidagi uqdirishlarini to'g'ri tushunadigan bo'lsak, bu degani yosh avlodga to'g'ri ta'lim berish bilan birga, har bir aytgan so'zimizga avvalo o'zimiz rioya qilishimiz kerak bo'ladi. Masalan, “ilm ol” dedikmi, o'zimiz umr bo'yi ilmimizni oshirib, puxtalab borishdan to'xtamasligimiz kerak; “halol va adolatli bo'l” dedikmi, o'zimiz farzandlarimizni halol luqma bilan boqayotganimizga, o'z foydamizni ko'zlab bировga zulm bo'ladigan xatti-harakatdan saqlanishga qat'iy urinmog'imiz lozim bo'ladi. Ana shundagina bolalarimiz kelajagidan xotirjam bo'lishimiz mumkin.

“O'z-o'zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda.”

Albatta, barcha muammolarni bir kunda, bir hamla bilan yechib bo'lmaydi. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash bir umrlik ish. Mustaqilligimiz bu say-harakatlarimiz samarali bo'lishining ishonchli kafolatidir. Ammo har bir ishda yolg'on qadamlardan, oson yechimlar qidirishdan ehtiyot bo'lmog'imiz juda muhim. Har bir ishda qiyinchilikni bo'yniga olgan odam haqiqiy yutuqqa erishadi. Ayniqsa, biz ziyolilar, yosh avlod tarbiyachilari o'z vazifamizga mas'uliyat bilan yondoshsak, “Farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash”dan, shu yo'l bilan ular ongida “mafkuraviy immunitet” hosil qilishga urinishdan charchamasak, millatimiz yana buyuk millat bo'ladi, avlodlarimiz ajdodlarimizga munosib qudrat kasb

etadi. Muallimning mehnati samarasi uzoq kelajakka ulanib ketadigan ezgu mehnat. Keling, avlodni boqiylikka eltuvchi mehnatdan erinmaylik, toki Prezidentimizning, xalqimizning yorug‘ orzulari ushalsin, “yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin”<sup>7</sup>.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyin o‘tgan yillar davomida demokratik, barqaror taraqqiyotimizning barcha sohalarida bo‘lganidek, o‘zbek xalqining milliy an‘ana, urf-odat, marosim, bayram, qadriyatlarini tiklash, takomillashtirish va rivojlantirish yo‘lida ko‘dan-ko‘p yutuqlarga erishildi. Zero, muhtaram Prezidentimiz xaqli ravishda ta’kidlab o‘tganidek, - “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf – odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”.

Mustaqillik yillarida milliy an‘ana, urf-odat, marosim, bayram qadriyatlarimiz o‘zining obyektiv, ijtimoiy - a’naviy hodisa, jarayon sifatidagi tadrijoti (evolyusiyasi), tubdan o‘zgarib, takomillashib borishi bilan bir qatorda ularni ilmiy – sotsiologik, falsafiy, madaniyatshunoslik, aksiologik, ya’ni ilmiy – nazariy o‘rganish, tadqiq etish jarayonlari ham jiddiy tadrijotga uchradi. Ana shu jarayonlarni aksiologik, madaniyatshunoslik jihatidan o‘rganish, umumlashtirishning ham nazariy – metodologik, ham amaliy – tashkiliy jihatlariga ko‘ra qator dolzarb muammolari mavjud.

Zero, mustaqil O‘zbekistonda ma’naviyat, ma’rifat, an‘ana, qadriyat, urf-odat, marosim, bayramlarga birinchi darajali davlat siyosati darajasidagi ijobiy munosabat qaror topmoqda.

Shuning uchun ham Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov bir tomondan xalqimizning o‘z an‘ana, marosim, urf-odat, bayram, qadriyatlarini asrab -

---

<sup>7</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. -Т.: 2008. 29 – 30 бетлар.

avaylab, e'zozlab saqlash, ularga qadrlash an'anasidan kelib chiqqan holda, boshqa tomondan esa G'arbiy Yevropaning ilg'or falsafasi, sotsiologiyasi, aksiologiyasi, madaniyatshunosligining an'ana, urf-odat, marosim, ularga ijobiy munosabatni o'zida jo qilgan zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari, prinsiplarini tatbiq etish, ulardan ijodiy va tanqidiy foydalanishga oid ham amaliy, ham nazariy metodologik xulosa va yechimlarni bermoqdalar. Ijtimoiy fan sohasi vakillari, ayniqsa, faylasuflar oldiga "O'zbek milliy falsafasi"ni yaratishdek yuksak vazifani qo'ymoqdalar. Natijada, O'zbekistondagi ijtimoiy fanlar, shu jumladan sotsiologiya, falsafa, madaniyatshunoslik, aksiologiya fanlari sohalarida mazkur muammolarni o'rganish, tadqiq etish va baholash jarayonlari evolyusiyasi tubdan, sifat jihatdan yangilanish, o'zgarish, takomillashish tomon keskin o'zgarmoqda. Bu esa mustaqil O'zbekiston demokratik, barqaror taraqqiyotining muhim jabhasi bo'lgan ma'naviyat, ma'rifat, milliy an'ana, urf-odat, marosim bayramlar, qadriyatlarga nisbatan olib borilayotgan ijtimoiy - madaniy siyosatning ilg'or yutug'i sifatida e'tirof etishga loyiqdir.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng ijtimoiy madaniy faoliyat tubdan o'zgardi. Bu sohada tarkibiy o'zgarishlar tadrijiy tarzda amalga oshirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar natijasida ijtimoiy madaniy faoliyatning asosiy ish funksiyalari tarkib toptiriladi. Ular quyidagilar:

- O'zbekistonning mustaqil rivojlanishini ta'minlovchi besh asosiy tamoyilning hayotdan mustahkam o'rin olishiga ko'maklashishdir;
- Aholi turli qatlamlarida mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayoniga bevosita daxldorlikni shakllantirish;
- Hech kimdan kam bo'lmagan shaxs, jamiyat va davlatni shakllantirishga faol ko'maklashish;
- Jamiyatda hushyorlik, sezgirlik, ogohlikni ta'minlashda aholining farovonligini oshirish;
- Aholini bunyodkorlik faoliyatiga yo'naltirish;

- Aholini madaniyat, san'at, texnika, hunarmandchilik va sport mashg'ulotlari, klublar, to'garaklarga to'liq qamrov tamoyili asosida keng jalb etilishiga erishish;

- Odamlarda milliy an'analar, urf-odatlar, qadimiy bayramlarimizga ehtirom tuyg'usini tarkib toptirish orqali milliy o'zlikni anglashga ko'maklashish;

- Aholi turli tabaqalari vakillarida istiqlool ramzlari, bayramlari, ideallariga sadoqat, fidoyilik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilish;

- Odamlarda badiiy estetik didning yuqori darajada shakllinishiga xizmat qilish;

- Aholida oila muqaddasligi qadriyatning mustahkamlanishiga faol xizmat qilish;

- "maktab – oila – mahalla" hamkoligini ta'minlash orqali ijtimoiy madaniy faoliyatni rivojlantirishga erishish;

- Turli ijtimoiy harakatlar, nodavlat tashkilotlar, partiyalar, milliy-madaniy markazlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- "Zamonamiz qahramoni" obrazini hududdagi real shaxslar timsolida yaratish orqali ibrat omilini keng targ'ib etish;

- Har bir insonga xos bo'lgan iste'dodni aniqlash yo'lida doimiy faoliyat olib borish va ularning hududiy intellektual salohiyat xaritasini ishlab chiqish;

- Jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarni reklama qilish orqali yoshlarda faol bunyodkorlik fazilatlarini shakllantirish;

- Hududning ijtimoiy-madaniy rivojlanish imkoniyatlari bo'yicha asoslangan amaliy prognozlar yaratish ishlarini olib borish;

- Istiqlool yillarida shu tariqa ijtimoiy madaniy faoliyat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning uzviy bo'g'iniga aylandi.

Bugungi kunda ijtimoiy madaniy faoliyat kasbi egalari quyidagi sohalarda ishlashlari mumkin:

1. Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi muassasalarda madaniyat va axoli dam olish markazi klublar, muzeylar, parklar);
2. Turli ijtimoiy harakatlar, partiyalar, nodavlat tashkilotlari va qo'shma korxonalarda;
3. Ijtimoiy va tijorat reklama muassasalarida;
4. Mahalliy hokimiyat tuzilmalarida, mahalla bo'g'inlarida;
5. Ommaviy axborot vositalarida, radio va televideniya;
6. Sotsiologik markazlar, ilmiy tadqiqot institutlarida;
7. Milliy madaniy markazlarda;
8. Konsert tashkilotlarida (san'at menejeri, prodyusser)
9. Milliy madaniy merosni saqlash va uni targ'ib etuvchi muassasalarda.
10. Pedagogik faoliyatlarni tashkil etishda;

Xullas, ijtimoiy-madaniy faoliyat kasbining imkoniyat doirasi keng bo'lib, bozor munosabatlarining talab va taklif tamoyili talablari asosida erkin faoliyatlarini yo'lga qo'yishga yo'naltirilgandir<sup>8</sup>.

## **2.2. Istiqlol yillarida jamoat va nodavlat tashkilotlarida madaniyat ishlarining yo'lga qo'yilishi**

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish bosqichida davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy-ma'rifiy faoliyatini yanada takomillashtirish g'oyat muxim amaliy ahamiyatga molik bo'lib, uni mustaqil o'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ulug'vor ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar asosida amalga oshirilishi lozim. Zero, «Milliy davlatchiligimizni qayta tiklashda ko'p asrlik beqiyos ma'naviy merosimiz, tarixu madaniyatimiz, dinu tilimiz, muqaddas urf-odatlarimizning yana qad

---

<sup>8</sup> Юнусов А. Ўзбекистонда ижтимоий маданий фаолият таълими тараққиёти. М.Бекмуродов “Ижтимоий маданий фаолият эволюцияси” Илмий мақолалар тўплами. Т. 2011 йил.

rostdashida sezilarli qadamlar qo'yildi. Milliy g'ururimiz, oriyatimiz tiklanmoqda, qalbimizda asl vatanparvarlik tuyg'ulari uyg'onmoqda»<sup>9</sup>.

Mamlakatimizda amlaga oshirilayotgan ma'naviy tiklanish jarayoni, xalqning madaniy xayotida kechayotgan isloxot rejalarini amalga oshirishda, jamoat tashkilotlarining faol ishtiroki zarurligini talab etmoqda. «Biz, - deb ta'kidlagan edilar birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, - fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir»<sup>10</sup>.

Milliy mustaqilligimiz dadil odimlayotgan xozirgi davrda davlat, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy ongning barcha bo'g'inlari orasidagi o'zaro aloqadorlik va uzviy bog'liqlikning amaliy ahamiyatini e'tiborga olib, madaniy-ma'rifiy faoliyatni ko'tarishga katta e'tibor berilmoqda.

Zero, mamlakatimiz oldida turgan dolzarb ijtimoiy muammolarni xal qilishda jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli kattadir. Ayniqsa, maxalla muxim ijtimoiy bo'g'in xisoblanadi. Shu bois maxallalar faoliyatini xar jixatdan qo'llab - quvvatlash, ularning moddiy ta'minotini mustaxkamlashga davlatimiz aloxida e'tibor bermoqda. Mamlakatimizda kechayotgan isloxotlarning tayanchi sanalgan maxallaning ijtimoiy xayotdagi o'rni xaqida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadilar: «Jamoatchilik g'oyalari, jamoa manfaatlarining birligi, ko'pchilik fikrining ustunligiga asoslanish – jamiyatimizning muxim xususiyatidir. Shu bois jamiyatni demokratiyalash tizimida, uning aossiy qoidalarini, eng avvalo ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarishda maxallaning roli g'oyat kattadir. Xozirgi vaqtda oilalarning xaqiqiy moddiy axvolini, ularning ma'naviy va madaniy qiziqishlari doirasini maxalladan ko'ra yaxshiroq biladigan boshqa tizim yo'q. Maxalla xozir xalq ishonchini qozongan adolat maskani xamda axolini ijtimoiy

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 265-bet.

<sup>10</sup> Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqolining asosiy tamoyillari. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 11-bet.

qo'llab - quvvatlash mexanizmi bo'lib qoldi. U jamiyatimizda isloxtlarni amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta'sirchan vositasiga aylanishi darkor»<sup>11</sup>.

Jamoat tashkilotlarining milliy mustaqillik sharoitida madaniy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlarining asosiy maqsadi va vazifalari Prezidentimiz asarlarida<sup>12</sup> mukammal bayon etilgan bo'lib, bu fikrlar davlat va millat kelajagini belgilovchi ilg'or g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning rivojlanishida jamoat tashkilotlarining roli masalasi ko'pgina o'zbek olimlari tomonidan falsafa, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy-ma'rifiy faoliyatlari bevosita axoli ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lib, turli-tuman shaklda voqe bo'lishi bilan xarakterlanadi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat quyidagi umumiy jixatlari bilan ajralib turadi:

a) u faqatgina ustun rivojlangan madaniy faoliyatga borib taqalishi mumkin emas;

b) faoliyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyatning yetakchi tamoyili xisoblanadi;

v) madaniy qadriyatlar yaratish va ommalashtirish ijodiy jarayon bo'lib, unda sustgarchilikka yo'l qo'yilmaydi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra kommunikativ faoliyat xisoblanadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat – bu jamoa miqyosidagi ijodiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Qishloqlardagi jamoat tashkilotlari esa shaxsni madaniy faoliyatga jalb etishga yo'naltiruvchi madaniy-ma'rifiy faoliyatga nisbatan bunday yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, madaniy faoliyatda subekt sifatida jamoat faoliyatining namoyondasi xisoblanuvchi aloxida shaxs emas, balki jamoa, birlashma, madaniy uyushma yoki kneg xalq ommasi

---

<sup>11</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O'zbekiston, 1998. 400-bet.

<sup>12</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. Toshkent: O'zbekiston, 1996;

o`rtasida ma`naviy faoliyat olib boruvchi jamoat tashkilotlari belgilanadi. Ayni paytda jamoat tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ular bilan individual ijodiy faoliyat birligiga bog`liqligini xam xisobga olish zarur.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyaviy ishlarni olib borish va dam olishni tashkil etish kabi vazifalarni aloxida ajratib ko`rsatish zarur. Chunki madaniy faoliyatning mazkur yo`nalishlari qishloq ma`naviy xayotida muxim ahamiyat kasb etadi. Qishloq jamoat tashkilotlari pedagogik tizim sifatida xalqqa eng yaqin turuvchi bo`g`in hisoblanadi. Ular faoliyati orqali axolining madaniy va ma`naviy saviyasi o`sib boradi. Natijada axoli o`zining ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining har biri o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lsalarda, ular o`zaro aloqadorlikda ish olib boradilar. Ularning faoliyatidagi mushtaraklik maqsadning umumiylikda (huquqiy demokratik davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini rivojlantirish), vazifa va mazmunning mushtarakligida namoyon bo`ladi. har bir tashkilotning o`ziga xos xususiyati esa tarbiyaning muayyan shakli, uslub va vositasini qo`llashda ko`zga tashlanadi. Qishloqda aholi estetik ehtiyojini qondiruvchi madaniy-ma`rifiy faoliyatning turli-tuman shakllaridan, xususan, radioeshittirish, teleko`rsatuv, kino, fan va madaniyat arboblari bilan uchrashuv, suxbat, maslaxat va boshqalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Axborot manbalari tizimida ro`znoma, radio va televideniye asosiy o`rinni egallaydi. Jamoat tashkilotlari tomonidan o`tkaziladigan tadbirlar axborot manbalari orasida oltinchi o`rinni egallaydi. Ta`kidlash lozimki, mazkur tadqiqotning dastlabki bosqichi o`zbekiston Respublikasi mustaqilligi e`lon qilinishi arafasida olib borildi. Tabiiyki, ko`p yillik mafkuraviy qullikda yashagan xalqimiz madaniy xayoti xam o`sha davrda sho`rolar siyosati iskanjasida edi. Bunday inqirozli vaziyat qishloq axolisi madaniy faoliyatining

turlari va manbalariga nisbatan bo'lgan munosabatlarida xam o'z ifodasini topgan.

Jamoat tashkilotlarining madaniy-ma'rifiy faoliyatlari muammosiga bag'ishlangan nazariy manbalar xamda Uzbekiston Respublikasi xukumatining ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish borasidagi xujjatlarini o'rganish asosida olib borilgan tadqiqotlar davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish borasida faoliyatlarning uslubiy tizimini ishlab chiqishda muxim nazariy axamiyat kasb etdi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining axoli madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatlari tizimi – bu qishloqda madaniyatning shakllanishi, saqlanishi va mustaxkamlanishiga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Davlat va jamoat tashkilotlari, shuningdek, axolining madaniyatini rivojlantirishdagi yuqori ijtimoiy faolligiga erishish mazkur tizimning asosiy vazifasi xisoblanadi. Ushbu vazifa tashkiliy, ijtimoiy vaa iqtisodiy tadbirlar majmuasidan iborat jarayon bo'lib, davlat, xo'jalik va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshiriladi.

Bozor munosabatlariga o'tish bosqichi axoli madaniyatining rivojlanishini rejalashtirishda, dasturlash xamda yangicha yondoshuvni joriy qilishni talab etadi. Chunki busiz ijtimoiy va madaniy jarayonlarni

Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyatlari mazmuni har bir kishi o'zining bo'sh vaqtida tadbir va mashg'ulotlarning muayyan bir turini tanlashi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. U shaxs rivojida bir xillik va meyoriylikni nazarda tutmaydi. Faqatgina muayyan tadbirni tanlash erkinligi shaxs ma'naviyatining izchil rivojlanishini belgilab beradi. Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyatlari o'z mazmuniga ko'ra axolining umumiy madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni hisobga oladi:

- a) umumiy madaniy extiyojlarnig rivojlanish istiqbollari;
- b) aholining madaniyat soxasidagi ijodiy faoliyatlari uchun yetarli sharoit yaratish.

Davlat va jamoat tashkilotlari madaniy-ma'rifiy faoliyatlarining turlarini yaxlitlashtirgan xolda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Faoliyat vaqti va shaklini shaxsning o'zi tanlaydigan madaniy faoliyatning uy turi.

2. Madaniyat va aholi dam olish markazi, kutubxona, muzey, ko'rgazma va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarda amalga oshiriladigan uydan tashqaridagi faoliyat turi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining mazkur tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlari uning samaradorligini muntazam ravishda oshiirshni nazarda tutib, hamorlikda ishlashga qaratilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda davlat va jamoat tashkilotlari tarkibi shakllanib, faoliyat ko'rsatmoqda. Uning asosiy turlari:

- jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, partiyalar, ijodiy uyushmalar, jamg'armalar va boshqalar);

- xalq havaskorlik jamoalari, maxalla qo'mitalari va b.

davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy-ma'rifiy ishlarini rivojlantirish borasidagi madaniy faoliyatlari tizimi mazmunini ishlab chiqishda quyidagi omillar asos qilib olinadi:

a) Respublikamizda aholi barcha qatlamlarini ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishga keng jalb etish; demokratiya jarayonlarini jadallashtirish, turg'unlik davri qoldiqlarini bartaraf etish; milliy madaniyatni, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish ishlari olib borilayotganligi, Vatanga sodiqlik, el-yurtga muhabbat, yuksak ma'naviylik sifatlarini shakllantirgan o'z harakati va qarorlariga javob bera oladigan faol fuqaro pozitsiyasida turuvchi kishini siyosiy madaniyatli shaxs deb xisoblash mumkin.

Davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyatlari ham shaxsda huddi shu sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Bunday faoliyat samaradoriligi nafaqat amalga oshirilgan tadbirlar miqdori va sifatiga ko'ra, balki ularni kim tashkil

etganligi hamda amalga oshirganligi, shuningdek, ularda aholining ishtirok etshi darajasiga ularda aholining ishtirok etshi darajasiga ko`ra ham baholanadi.

b) umum ahamiyatga molik vazifalarni xalq etshiga qaratilgan xalq ijodiyotini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi; davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatga to`g`ri pedagogik rahbarlik qila olishi buning asosiy zamini hisoblanadi. Pedagogik rahbarlik vaziyatni, bilim va ko`nikmalarni oqilona uyg`unlashtirishni nazarda tutadi. Davlat va jamoat tashkilotlari alq o`rtasida amalga oshiriladigan ma`naviy-ma`rifiy muloqotlar asosida shaxsning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshiruvchi vositaga aylanadi, shuningdek, jamiyat tafakkurining shakllanishida xam faol ishtirok etadi.

v) hozirgi davrda qaxvaxonalar, videosalonlar, studiyalar, o`yin xonalari musiqa va sport anjomlarini ijaraga berish. Oilaviy tantanalarni o`tkazish bo`limlarini tashkil etish orqali axolining pullik xizmatga bo`lgan talabini qondirish mumkinligi.

g) bozor iqtisodiyoti sharoiti va munosabatlari madaniyati moddiy-texnika salohiyatini rivojlantirish hamda mustahkamlashda maxalliy korxonalar yordamida va xomiylar ko`magidan kengroq foydalanishni talab qilayotganligi.

Davlat va jamoat tashkilotlari o`z madaniy-ijodiy faoliyatlarini dam olish vaqtida amalga oshiradilar. Dam olish faoliyati o`z navbatida shaxsnig mustaqil ijodiy saloxiyatining amalga oshishiga ko`mak beradi, shuning uchun ham u qiziqarli, aqliy va ruhiy jihatdan boy bo`lishi lozim.

Shu jihati bilan u havaskorlik ijodiyotidan farqlanadi va keng xalq ommasini o`ziga jalb qiladi. Madaniy-ma`rifiy muassasalar qoshida va ulardan tashqarida badiiy uyushmalar, kolleksioner va texnik ijodkorlar jamiyatlari, oilaviy hamda o`smirlar sport klublari va birlashmalari tashkil etilib, faoliyat ko`rsatadi. Ushbu ijodiy birlashmalar faoliyati xalqning qiziqarli tadbir xamda muloqotga bo`lgan extiyojlari asosida yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasida jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda «siyosiy partiyalar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil hayoriya va ijodiy jamg'armalar

hamda uyushmalarda»<sup>13</sup> ishtirokini yanada kuchaytirish, ularning davlat oldidagi mavqeini mustahkamlash vazifasi qo'yilmoqda.

Jamoat tashkilotlarining madaniy-ma'rifiy faoliyatlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ushbu faoliyatning maqsadi shaxsda muayyan hususiyat hamda sifatlarni tarbiyalashdan iboratdir;

b) kishilar o'rtasidagi muloqot jarayonida g'oyalar, malaka va bilimlar almashinuvi mazkur faoliyat vositasi hisoblanadi;

v) jamoat tashkilotlari faoliyati yoki individual faoliyat madaniy faoliyatni amalga oshirish usulidir.

Davlat va jamoat tashkilotlarining axoli ma'naviy extiyojlarini qondirish bilan bog'liq madaniy faoliyatlari hilma-xil bo'lishi bilan bir qatorda unga quyidagi umumiy jihatlar ham xosdir:

a) u faqatgina bir ustuvor madaniyatga tayanishi mumkin emas;

b) faoliyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyat mezonlari hisoblanadi;

v) madaniy faoliyat me'zonlarini ishlab chiqish va foydalanish sustgarchilikka yo'l qo'yilmaydigan ijodiy jarayondir.

Muloqot tavsifi ommaviy axborot vositalari (teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar), havaskorlik ijodiyoti, bayramlar. Sayllar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat va jamoat tashkilotlari muloqotning mashhur kishilar bilan uchrashuv, oila kunlari, qiziquvchilar birlashmalari kabi shakllaridan foydalaniladilar.

---

<sup>13</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 14-bet.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmoqda.

Hayotimizda ma'naviy kamolotni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda-ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy meroslarini o'rganish ham katta o'rin egallaydi. Shu sababli prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk otabobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va tatbiq etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshladi.

Har qanday sharoitda ham barcha millat va xalqlar o'zining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga muhtojlik sezadi. Ma'naviyat-inson uchun mavjudlik belgisi. Ma'naviy boylik u yoki bu millatni boshqa etnik birikmalardan o'ziga xosligini bildiruvchi, anglatuvchi muhim omildir. Ma'naviyati yo'q xalqning o'zi yo'q. Shu bilan har bir xalq ma'naviyati ham bir xil darajada emas. O'zbek xalqi aynan shu yo'ldan bordi, o'z milliy-tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini ko'rsata bildi. Bu esa mustamlakachilik davrida yo'qotilgan, tepalangan madaniy merosni tiklash, o'zligini anglashga bo'lgan rag'batni o'yg'otdi. Istiqlool yillarida o'zbek madaniy hayoti uyg'ondi, jonlandi va o'zining bugun mavjud bo'y-bastini ko'rsata bildi. Teatr, musiqa san'ati rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy ma'rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi. Ayniqsa, teatr san'atining rivoji gullab yashnadi. Bu bejiz emasdi, zero mustamlakachilik davrida teatrlar kommunistik mafkuraning xizmatkoriga aylangan, siyosiy maqsadlarnigina bajaruvchi kuchga aylangan edi. Shu asnoda asosiy e'tibor repertuar masalasini hal etish, tomoshabinlarni bezdiradigan sahna asarlari o'rniga ularning ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi spektakllarni fuqarolar hukmiga havola etishga asosiy e'tibor qaratildi. O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi tanijasida ma'naviy

madaniyatning muhim jabhasi bo'lgan musiqa san'ati ham juda rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'gusidir. Shuolar davrida asosan mafkuraviy hukmronlik qo'ligi aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'liga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy qo'shiqchilik san'atidan bahramand bo'la boshladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniyat ishlarini boshqarish sohasini umuman tizimni to'laqonli faoliyat olib borishini takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar bermoqchimiz.

**Birinchidan,** madaniyat va san'at sohasini boshqarish bo'yicha zamonaviy kadrlar tayyorlashda eng ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish.

**Ikkinchidan,** Madaniyat va san'at sohasida faoliyat olib borayotgan rahbar kadrlarning malakasini oshirish va tajriba almashishlarini xorijiy davlatlarda tashkil etish.

**Uchinchidan,** Madaniyat va san'at sohasi muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etish va o'tkazish hamda xalqaro ekspertlarning mahorat darslarini tashkil etish.

**To'rtinchidan,** Madaniyat va san'at sohasiga kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasiga xalqaro tajribalarni o'rganishga qaratilgan predmetlarni kiritish.

### **Xulosa**

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining olib borayotgan insonparvarlik siyosati natijasida o'zbek xalqining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda.

Tabiiyki, bugun ko'p sonli muammolar orasida birinchi o'rin iqtisodiy muammolar chiqadi. O'z-o'zidan ma'lumki iqtisodimiz rivoj topsagina, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari ham, jumladan madaniyat, maorif, sog'liqni

saqlash tashkilotlari ham rivoj topadi. Lekin, *inson madaniy taraqqiyotni* shakllantirmasdan turib hech qanday islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

**Madaniyat muassasalari** Aholini ma'naviy extiyojini qondirishga kishilarga ruhiy ozuqa berishda bilimli va dunyoqarashini boyitishda, mazmunli dam olishga ko'mak berishda muhim o'rin tutadigan maskanlar sifatida xizmat qilmoqda.

Joylardagi madaniy ma'rifiy muassasalarning faoliyati mustaqillik davrida tubdan o'zgardi, mazmunan boyidi, ba'zi hollarda ularning faoliyatlariga yangicha talablar ham qo'yildi.

Ma'naviyatni bir uyga to'plangan boylikka o'xshatsak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yosh g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himiya choralarini ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim.

Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan ajratilgan bo'lsin.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham G'arb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Eng muhimi, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib, ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondoshib yangi cho'qqilarga ko'tarildi. Bu fikrning tasdig'ini ma'naviyatning tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqod, san'at misolida ham ko'rish mumkin. Faqat Vatanimizgina emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallagan allomalarimiz ijodi ham shu fikrni tasdiqlaydi.

Masalan, shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasi, tabiiy fanlarni chuqur o'zlashtirgan edi.

Hindistonda bo'lgan paytida u hind fani va madaniyatini o'rganar ekan. Qadimgi manbaalarni o'rganish uchun qadimgi hind tili – sanskritni bilish lozimligini anglaydi. U sanskritni qisqa muddatda chuqur o'zlashtirib, qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o'rgana boshlaydi. U, shuningdek, Yunon va rim madaniyati va fanini o'rganish uchun Yunon, Lotin hamda qadimgi yahudiy tillarini o'zlashtirgan edi.

Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga nazar tashlansa, uning boshqa xalqlar udum va an'analarini qanchalik o'zlashtirib va rivojlantirib borganini ko'rish mumkin.

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqin qo'shni xalqlarning ilg'or an'analarini o'zlashtirish natijasida boyib bordi. Ma'naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati hamda uning asr oxiridagi holati o'rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, hatto oddiy yurish-turish va kiyim-kechak, turmush sohalarida ham kuzatish mumkin.

Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish u yoqda tursin, o'z yurtimizda qadrlash uchun ham yo'l berilmadi, ko'pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'sha toptalgan qadriyatlarimizni tiklash, milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish imkoniga ega bo'ldik. O'zbek milliy kurashini dunyoga yoyish bo'yicha qilingan ishlar, dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida o'zbek kurashi federatsiyalarining tuzilishi buning yaqqol misoli.

Dunyo butun O'zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'alarining umuminsoniy g'oyalar bilan mujassamligi, san'at va arxitektura, fan va ma'naviyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak, globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo'lib qolmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari
  - 3.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 14 fevraldagi F-4849 Farmoni.
  - 3.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son Qarori.
  - 3.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 5 apreldagi Qarori.
  - 3.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida»gi 2018 yil 6 apreldagi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
  - 4.1. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevraldagi «2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorida bu
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari
  - 5.1. SH.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari

- va 2017 yil istiqbollariga bagʻishlangan majlisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi, “Xalq soʻzi”, 2017 yil 16 yanvar.
- 5.2.SH.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “Oʻzbekiston”, 2017.
- 5.3.SH.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent. “Oʻzbekiston”, 2017.
- 5.4.SH.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda quramiz. Toshkent. “Oʻzbekiston”, 2017 yil
- 5.5.SH.Mirziyoyev. Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, “Xalq soʻzi”, 2017 yil 4 avgust.
- 5.6. I.Karimov.Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. Toshkent. “Maʼnaviyat”, 2011.
- 5.7. I.Karimov. Milliy mafkura haqida . – T., 2000.
- 5.8. I.Karimov. Maʼnaviy yuksalish yoʻlida. – T., 1998.
- 5.9. I.Karimov. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: Oʻzbekiston, 1997.
- 6.Oʻquv qoʻllanmalar
- 6.1. Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. –T., 2007.
- 6.2.Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. –T.: Gʻ.Gʻulom, 2002.
- 6.3.Jabbarov I. Oʻzbek xalqi etnografiyasi. –T.: Oʻqituvchi, 1994.
- 6.4.Istiqlol va milliy teatr. Farmonlar, qarorlar, nutqlar toʻplami. -T., 2002.
- 6.5.Karabayev U.X. Etnokultura. – T., 2005.
- 6.6.Shodiyev B. Maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari. //Doktor. diss... –T., 2007.
- 6.7.Oʻzbekiston sanʼati (1991-2001 yillar). Oʻzbekiston badiiy akademiyasi sanʼatshunoslik ilmiy tadqiqot instituti. –T.: Sharq, 2001.

- 6.8.Qoraboyev U.H. Madaniyat masalalari. -T.: O'qituvchi, 2011.
- 6.9.Qoraboyev U.H. Madaniy tadbirlar. -T.: O'qituvchi, 2003.
- 6.10.Qoraboyev U.H. O'zbek xalqi bayramlari. – T., 2002.
- 6.11.Abduraximov T., O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari, T., 1997

*7.Internet saytlari*

7.1.[www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).

7.2.[www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru).

7.3.[www.history.ru](http://www.history.ru).

7.4.[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - Hukumat sayti.

7.5.[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) - Prezident sayti.

7.8.[www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz) - Vazirlik sayti.